

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 60 (1659), 2026-yil 28-mart, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



STRATEGIK SHERIKLIK VA YAQIN ITTIFOQCHILIKNING DO‘STONA QIYOFASI

27-mart kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston — Tojikiston sammitining ikkinchi kuni tadbirlarida ishtirok etish uchun Buxoro shahrida bo‘ldi.



Mamlakatimiz yetakchisi Buxoro xalqaro aeroportida davlat tashrif bilan yurtimizda bo‘lib turgan Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmonni kutib oldi. Shu yerning o‘zida oliy martabali mehmon sharafiga tantanali marosim tashkil etilib, milliy qo‘shiq va raqslar ijro etildi.

Buxoro. Bu qadim kent asrlar osha ilm-fan, ma‘rifat markazi bo‘lgan. Insonlar dunyoning to‘rt tomonidan ilm izlab Buxoroga kelgan. Ular doim bu shaharda ulkan orzular qilib, baland maralar uchun ilhom olgan. Yangi O‘zbekistondagi islohotlar sabab bu tarixiy haqiqat yana jonlana boshladi. Bu haqda bir oz keyin to‘xtalamiz.

Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev hamrohligida davlat Bahouddin Naqshband maqbarasini ziyorat qildi.

“Dil ba yoru, dast ba kor”. Ulug‘ ajdodimiz Bahouddin Naqshband ta‘limotining ezgu tamoyili bo‘lgan ushbu shior bizga komil inson bo‘lish haqida saboq beradi. Bu ko‘ngling ma‘rifatga to‘lib, qo‘ling, jismu joning halol mehnatda bo‘lsin, degani. Buning

hayotiy misoli sifatida birgina Alisher Navoiy siyosini eslash kifoya. Hazrat Navoiyning qalbi ma‘rifatga qanchalik ko‘p yo‘g‘rilgan bo‘lsa, jismini el-yurt, xalq xizmatiga shunchalik ko‘p baxshida etdi. Bunday qadriyatlar doim insonni mehnatsevarlik va ruhiy poklikka da‘vat etadi.

O‘z nomi bilan ataluvchi tariqat asoschisi Bahouddin Naqshband dafn etilgan ushbu ziyoratgoh islom olamining ulug‘ qadamjolaridan. Hozir uning tarkibida maqbara, xonaqoh, masjidlar, daxma va so‘fiylik tarixi muzeylari bor.

Shundan so‘ng mamlakatlar yetakchilari Somoniylar maqbarasiga tashrif buyurdi. Maqbaralarga ziyorat chog‘ida Qur‘on tilovat qilib, o‘tganlarga rahmat, yurtimizga tinchlik va farovonlik tilab, duo qilindi.

Buxoro ilm-ma‘rifat markazi deb atalishi bejiz emas. Birgina Somoniylar maqbarasi ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Masalan, maqbara poydevoriga yuqori sifatli pishgan g‘isht shunday shaklda terilganki, bir qarashda uni kitoblar taxlami deb o‘ylaysiz. Shuning o‘ziyoq har qanday bino, qaddini tik

tutgan jamiyat poydevori, ildizi kitob, bilim bilan mustahkam ekaniga go‘zal ishora.

IX asr oxiri — X asr boshlarida qurilgan Somoniylar maqbarasi Markaziy Osiyodagi pishiq g‘ishtdan bunyod etilgan eng qadimiy inshootlardan biri. U Somoniylar davlati asoschisi va birinchi hukmdori Ismoil Somoniy tomonidan sulolaviy maqbara sifatida bunyod etilgan.

Ushbu me‘moriy obida diyorimiz tarixini o‘zida mujassam etgani bilan ham ahamiyatli.

Maqbaradagi o‘ziga xos me‘moriy yechim islom va undan avvalgi davr an‘analarini, jumladan, so‘g‘d madaniyatiga xos naqshlarni aks ettiradi. Bu ham, yuqorida ta‘kidlaganimiz, xalqimiz ma‘rifatining ilm-fan bilan uyg‘unligini ko‘rsatadi. Bunga yana bir isbot, quyosh nurining tushishiga qarab maqbara naqshlari turlicha jilolanadi. Binoning kub va gumbaz shaklidagi kompozitsiyasi Yer va Osmon uyg‘unligining ramziy ifodasidir. Devorlar yuqori sifatli g‘ishtdan, qariyb ikki metr qalinlikda terilgani uchun ham mazkur noyob yodgorlik hozirgacha yaxshi saqlangan.

Tarixiy va ma‘rifiy ahamiyati sabab me‘moriy obida doim yurtimizga kelgan sayyohlar bilan gavjum. Quyosh tikkaga kelib ulgurmay Somoniylar maqbarasi atrofida turli davlatlardan kelgan ko‘plab millat vakillari unga havas va hayrat bilan boqadi. Ular orasida nemislar ham, hindu xitoylar ham bor. O‘zimizning akalimizday uzun bo‘y, egniga yaktak ilgan yigit kelib bizni savolga tutadi. Tojik tilli bu birodarimiz qo‘shni davlatdan kelgan ekan. U giddan maqbara haqidagi ma‘lumotlarni eshitib, o‘z tilida “Katta tarix, ulug‘ joylar”, deya hayratlanadi.

Beixtiyor Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston va Tojikiston munosabatlari yodga tushadi. O‘n yil avval qardosh va qo‘shni xalqlar bir-birini simto‘siq ortidan ham ko‘ra olmasdi. O‘zi istagan paytda turli oilaviy tadbirlariga borib kelish imkonsiz edi. Yangi O‘zbekistondagi islohotlar sabab bugun davlatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yangi bosqichga chiqdi. Ana shunday o‘ylar bizni Ark qo‘rg‘oni sari boshlaydi.

Tashrifning navbatdagi manzillarida Prezident Emomali Rahmon Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Ark qo‘rg‘oni, Poi Kalon va Labihovuz majmualari bilan tanishdi.

Ark qo‘rg‘oni Buxoroning qadimiy qal‘asi. U qariyb 1500 yil davomida hukmdorlar qarorgohi sifatida xizmat qilgan. Qal‘aning dastlabki binolari miloddan avvalgi IV-III asrlarga mansub. Uning hozirgi ko‘rinishi asosan XVI asrda shakllangan. Ilgari u saroylar, ma‘muriy binolar, qurolxonani o‘z ichiga olgan “shahar ichidagi shahar” bo‘lgan. O‘rta asrlarda bu yerda Rudakiy, Ibn Sino va keyinchalik Umar Xayyom kabi buyuk mutafakkirlar yashab, ijod qilgan.

Poi Kalon majmuasi Buxoroning eng ulug‘vor va mashhur me‘moriy ansambllaridan biri sifatida tojikistonlik mehmonlarda katta qiziqish uyg‘otdi. 45,6 metrli minora 1127-yilda qurilgan. Majmua tarkibida 12 ming kishi sig‘adigan jome masjid, islom olamining eng nufuzli ta‘lim muassasalaridan biri hisoblangan Mir Arab madrasasi bor. Masjid hovlisini o‘rab turgan 288 ta gumbazli galereya, yuzlab ustunlar va noyob akustika majmuaga alohida ulug‘vorlik bag‘ishlaydi. Bu yerga bir marta tashrif buyurgan kishi yana kelishni istaydi. Chunki bu yerdagi muhit vaqt mashinasi

vazifasini o‘tab, sizni bir lahzaga tarix bilan yuzlashtiradi. Bu tuyg‘u yana bir qadim manzil — Labihovuz sari yetaklaydi.

Labihovuz ansambli Buxoroda saqlanib qolgan, o‘rta asrlarga oid sanoqli maydonlardan biri. Uning markazida qadimiy hovuz joylashgan. Asrlar davomida shahar aholisi bu yerda dam olgan, suhbatlashib o‘tirgan va savdo qilgan. Hozir ham bu manzilga kelgan kishi aynan shu muhitni his qilishi, diltortar suhbatdosh ila miriqib hordiq chiqarishi mumkin. Unga tutash qadimiy bino yonida esa savdo rastalari sayyohlar va yurtdoshlarimiz xizmatida. Majmua tarkibida Ko‘kaldosh madrasasi, Nodir devonbegi madrasasi va xonaqoh kabi noyob obidalar bor.

Tojikiston yetakchisi har bir tarixiy obidaning badiiy uyg‘unligi, milliy hunarmandlik namunalari va tarixiy eksponatlarga katta qiziqish bildirdi. Oliy martabali mehmonga me‘moriy uslubning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, naqshlar va ramzlarning mazmun-mohiyati haqida batafsil ma‘lumot berildi.

Buxoroning boy tarixi, Buyuk ipak yo‘lidagi o‘rni, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo‘shgan ulkan hisssasi haqida hikoya qiluvchi bu qadamjolar Tojikiston delegatsiyasida chuqur taassurot qoldirdi.

Maqolamiz avvalida yangi O‘zbekistondagi islohotlar sabab tarixiy haqiqat yana jonlana boshlagani haqida aytgan edik. Bu haqiqat shundaki, yangi O‘zbekiston dunyoga tarixiy rivojlanish tashabbusini ilgari surmoqda. Ayni paytda yangilanishlar jarayoni ushbu tashabbusga hamohang tarzda kechmoqda. Buni yaqindagina rasman ochilgan Islom sivilizatsiyasi markazi misolida ham ko‘rish mumkin.

Bunday islohotlar sabab mamlakatimizda iqtisodiy tarmoqlar jadal rivojlanyapti. Negaki tadbirkorlikka keng yo‘l ochilib, xorijlik sarmoyadorlar uchun barcha sharoit yaratilgan. Shu tariqa ilm va ma‘rifat iqtisodiy quvvatlar bilan mustahkam asosga ega bo‘lib boryapti. Buni Buxoro viloyati misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Mamlakatlar yetakchilarining navbatdagi manzili — Buxoro viloyatidagi “Merganteks” paxta-to‘qimachilik klasteri tarkibidagi “Nigora” fabrikasi fikrimizning yaqqol dalili.

Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmon davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev hamrohligida ushbu fabrikada bo‘lib,

mamlakatimiz yengil sanoati imkoniyatlari bilan tanishdi.

Fabrika qiymati 35 million dollarlik loyiha doirasida tashkil etilgan. Bu yerda paxta xomashyosini qayta ishlashdan tortib, mato va kiyim-kechak tayyorlashgacha bo‘lgan uzluksiz ishlab chiqarish zanjiri yo‘lga qo‘yilgan.

“Shoyigul” savdo belgisi ostida ishlab chiqarilayotgan tikuv-trikotaj va tayyor kiyimlar Yevropa mamlakatlari, xususan, Italiya, Avstriya, Buyuk Britaniya va Germaniyada ham tanilib bormoqda. Chunki mahsulotning asosiy qismi ushbu davlatlarga eksport qilinadi. Loyiha sabab 840 ta ish o‘rni yaratilgan. Bu joyda, asosan, mahalliy aholi vakillari, yoshlar va ayollar mehnat qilmoqda. Bu ham mamlakatimizda inson qadriini ulug‘lashga qaratilgan yangilanishlar samarasidir.

Korxonaning texnik imkoniyatlari xalqaro standartlarga to‘la javob beradi. Chunki undagi yuqori texnologik uskunalar bozorni jiddiy tahlil qilish asosida Xitoy, Germaniya va Belgiyadan olib kelingan. Loyihaning ikkinchi bosqichida sintetik tola va undan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilgan.

Oliy martabali mehmonlar korxonaning shou-rumini va tayyor mahsulotlar namoyishini ko‘zdan kechirdi.

Yiliga 10 million dollarlik eksport qilayotgan fabrika mahsulotlarining sifati Tojikiston delegatsiyasi tomonidan yuqori baholandi.

Prezidentlar mamlakatlarimizning ilg‘or korxonalari o‘rtasidagi kooperatsiyani kengaytirish muhimligini ta‘kidladilar.

Shuning bilan Tojikiston Respublikasi Prezidentining mamlakatimizga qilgan davlat tashrif o‘z nihoyasiga yetdi. Kuni kecha davlat rahbarlari tor doirada muzokaralar va Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig‘ilishini o‘tkazdilar, qo‘shma loyihalarga start berdilar. Uchrashuvlar yakunida ikki tomonlama hujjatlarining salmoqli to‘plami imzolandi.

Buxoro xalqaro aeroportida mamlakatimiz yetakchisi Shavkat Mirziyoyev Tojikiston Prezidenti Emomali Rahmonni kuzatib qo‘ydi.

Davlatimiz rahbari Buxoroga safarini yakunlab, Toshkentga qaytib keldi.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

SOG‘LOM JAMIYAT, BAQUVVAT MILLAT VA YORQIN KELAJAK SARI ISHONCHLI QADAM

Yangi qonun



So‘nggi yillarda yurtimizda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, aholining jismoniy faolligini oshirish, ayniqsa, yoshlarni sportga keng jalb qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu boradagi keng ko‘lamli islohotlar doirasida sport infratuzilmasi rivojlantirildi, xalqaro musobaqalarda munosib ishtirok etuvchi sportchilar tayyorlandi.

O‘tgan to‘rt yilda sportni rivojlantirish, sohadagi muammolar yechimini ta‘minlash va infratuzilmasini kengaytirishga oid 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Respublikamizdagi aholining keng

qatlamlari, shuningdek, yoshlarni ommaviy sportga jalb etish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Natijada aholining ommaviy sportdagi qamrovi yildan yilga ortib bormoqda.

Davomi 2-beta



Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

BARCHA SOHADA ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI TA‘MINLASH — BOSH MAQSADIMIZ

Qashqadaryo — bag‘rikeng, dangal so‘zli, lafzi halol, g‘ururi baland va mehnatkash odamlar yurti. Bizning yerimiz unumdor, aholimiz tashabbuskor, yoshlarimiz g‘ayratli. Shu bilan birga, viloyatimizda ish o‘rinlariga talab yuqori, suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasi dolzarb. Mahallalarda ijtimoiy muammolarni joyida hal qilish talab etiladi.

Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan keyingi 8 yilda chiqarilgan qariyb 1700 hujjat (farmon, qaror, farmoyish va bayon) doirasida Qashqadaryo viloyati bo‘yicha 16 mingga yaqin topshiriq berilgan. “Ijro.gov.uz” tizimi orqali har bir topshiriq ijrosi nazoratga olingan.

Ushbu tizimning joriy etilishi topshiriqning ijrosini muddati tugamay, jarayonda ta‘minlash, muammo bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatish imkonini berish barobarida aholi farovonligi va turmush darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.



O‘tgan yili 776 mahallada “mahalla yetiligi” a‘zolari 120,5 mingga yaqin muammo va murojaatni ko‘rib chiqdi. Ularning 91 foizi mahallaning o‘zida hal etildi.

Aholi farovonligi. Prezidentimizning Oliy Majlis va yurtdoshlarimizga

Murojaatnomasida qayd etilganidek, mahalla tinch va ahil bo‘lsa, jamiyatimiz tinch va hamjihat bo‘ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi. Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yilida mahallalarni mehr-

oqib, hamjihatlik, tarbiya va eng muhimi, adolat maskaniga aylantirish yo‘nalishidagi faoliyatimiz ko‘lami yanada kengayadi.

Davomi 3-beta



Nuqtayi nazar

MUSHTARAK MANFAATLAR IKKI DAVLAT MUNOSABATLARINING MUSTAHKAM ASOSI

Markaziy Osiyo bugun jahon siyosiy va iqtisodiy xaritasida tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan hududga aylanmoqda. Bunday sharoitda qo'shni davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, pragmatik yondashuv va manfaatli hamkorlik aloqalari nafaqat ikki tomonlama munosabatlar, balki butun mintaqa barqarorligi uchun hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Prezidentimiz rahbarligida yuritilayotgan ochiq va konstruktiv tashqi siyosat tufayli O'zbekistonning yaqin qo'shnilari bilan munosabatlari mutlaqo yangi bosqichga chiqqanini alohida ta'kidlash joiz.



Erkin GADOYEV, Oliy Majlis Senatining Bujdet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi raisi

Xususan, Tojikiston bilan munosabatlarda kuzatilayotgan ijobiy dinamikani so'nggi yillardagi eng katta yutuqlardan biri sifatida baholash mumkin. Ilgarigi murakkabliklar va to'siqlar o'rini bugun o'zaro ishonch, muloqot va amaliy hamkorlik egallagan nafaqat siyosiy iroda, balki uzoqni ko'zlagan strategik yondashuv samarasidir.



Ikki davlat o'rtasidagi yaqinlashuv tasodif emas. U aniq reja, izchil diplomatiya va o'zaro manfaatli to'g'ri anglash natijasida shakllanmoqda. Bugun O'zbekiston va Tojikiston munosabatlari faqat rasmiy bayonotlar bilan cheklanib qolmayapti, balki real iqtisodiy, ijtimoiy-gumanitar natijalarda namoyon bo'lmoqda.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. So'nggi yillarda o'zaro savdo hajmining bir necha barobar oshgani, biznes aloqalarining faollashgani va qo'shma loyihalarni soni ortib borayotgani hamkorlikning amaliy mazmun kasb etayotganini ko'rsatadi. Bu yerda muhim jihat shundaki, iqtisodiy aloqalar faqat raqamlarda emas, odamlar hayotidagi o'zgarishlarda ham aks etmoqda.

Sanoat kooperatsiyasining rivojlanishi bu jarayonning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Turli sohalarida qo'shma korxonalar tashkil etilayotgani, ishlab chiqarish zanjiri o'zaro bog'lanayotgani va yangi texnologiyalar joriy qilinayotgani iqtisodiy integratsiyani yanada chuqurlashtirmoqda. Eng muhimi, bu jarayon yangi ish o'rinlari ochish orqali aholi bandligi va daromadining oshishiga xizmat qilmoqda.

Transport va logistika sohasidagi o'zgarishlar ham alohida e'tiborga loyiq. Ilgari cheklangan harakat imkoniyatlari bugun ancha kengaygan. Avtomobil va temir yo'l qatnovlarining tiklanishi, yangi yo'nalishlarning ochilishi va aviaqatnovlar sonining ortishi ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni jadallastirdi. Bu esa iqtisodiy faolligni oshiribgina qolmay, odamlar

o'rtasidagi muloqotni ham sezilarli darajada kuchaytirdi.

Chegaralar ochiqligi va qulay shart-sharoitlar yaratilishi natijasida oddiy fuqarolarning o'zaro bordi-keldisi ancha yengillashdi. Vizasiz rejim, chegara punktlarining qayta ishga tushirilishi va transport qatnovlarining tiklanishi insonlar hayotida real yengillik yaratgan muhim qadamlardan. Bu holatni xalq diplomatiyasining eng samarali ko'rinishi sifatida baholash mumkin.

Energetika va resurslar sohasidagi hamkorlik esa o'zaro manfaatli munosabatlarning yana bir muhim ustuni. Elektr energiyasi almashinuvi, tabiiy resurslar yetkazib berish va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish ikki mamlakat iqtisodiyotini yanada mustahkam bo'lamoqda. Bu esa uzoq muddatli barqarorlik uchun muhim kafolatdir.

Turizm sohasida faollik oshishi ham e'tiborga molik. O'zaro safarlar sonining ko'payishi xalqlarimiz o'rtasida ishonch va qiziqish ortib borayotganini ko'rsatadi. Turizm faqat iqtisodiy foyda manbai emas, balki madaniy yaqinlashuv va o'zaro tushunishning muhim vositasi ekanini hisobga olsak, bu yo'nalishning ahamiyati yanada oydinlashadi.

Shu yil 26-mart kuni Ko'ksaroy qarorgohida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Emomali Rahmon o'rtasida bo'lib o'tgan muzokaralar ushbu ijobiy jarayonlarni yangi bosqichga olib

chiqdi. Oliy davlatlararo kengashning tashkil etilishi munosabatlarni tizimli ravishda rivojlantirish uchun mustahkam institutsional asos yaratdi. Bu formatning joriy etilishi, nazarimda, strategik jihatdan to'g'ri qadam. Chunki u ikki tomonlama hamkorlikni tasodifiy yoki epizodik emas, balki rejali va uzluksiz jarayonga aylantiradi. Bunday yondashuv esa katta natijalarga olib kelishi tabiiy.

Shu bilan birga, gumanitar aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar ham alohida ahamiyatga ega. Ta'lim, fan, madaniyat va yoshlar almashinuvi sohalaridagi hamkorlik kelajak avlod uchun mustahkam poydevor yaratadi. Chunki bugun shakllanayotgan munosabatlar erantigi kunning ijtimoiy muhitini belgilaydi.

Umuman, O'zbekiston va Tojikiston o'rtasidagi bugungi yaqinlashuv faqat ikki davlat doirasidagi hodisa emas. U butun Markaziy Osiyo uchun namuna bo'la oladigan hamkorlik modeliga aylanmoqda. Chunki bu yerda qarama-qarshilik emas, balki muloqot, raqobat emas, sheriklik ustuvorlik qilmoqda.

Yetakchilar o'rtasidagi ishonchli muloqot va siyosiy iroda natijasida shakllanayotgan yangi formatdagi munosabatlar uzoq muddatli taraqqiyotga xizmat qiladi. Eng muhimi, bu jarayon real natijalar — iqtisodiy o'sish, yangi imkoniyatlar va aholi farovonligida samarasini ko'rsatmoqda. Bugungi beqaror global muhitda aynan shunday yondashuv, ya'ni ochiqlik, o'zaro hurmat va amaliy hamkorlik eng to'g'ri yo'l ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

SOG'LOM JAMIYAT, BAQUVVAT MILLAT VA YORQIN KELAJAK SARI ISHONCHLI QADAM



Adham IKROMOV, sport vaziri

Boshlanishi 1-betda

Yana bir muhim jihat. Ijtimoiy himoya milliy agentligi bilan birga nogironligi bo'lgan shaxslarni ommaviy sportdagi qamrovi 71 ming nafarga olib chiqildi. Chekka hududlarda joylashgan va sport infratuzilmasi rivojlanmagan mahallalarda namunaviy tipdagi qariyb 2 mingga yaqin sport maydonchasi qurilib, foydalanishga topshirildi. Bu, o'z navbatida, mahalla yoshlarini ommaviy sportga jalb qilishda keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Sohada ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash uchun 24 ta axborot tizimini o'z ichiga olgan "ERP-Sport" yagona boshqaruv tizimi ishga tushirilib, 14 ta vazirlik va idora tizimiga integratsiya qilindi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2021-yildan yurtimizda paralimpiya harakatiga e'tibor kuchaytirildi. Natijada bu yo'nalishda professional shug'ullanuvchilar qamrovi 11 ming nafarga, sohadagi murabbiylar 1250 nafarga va milliy terma jamoalar zaxirasi 1500 nafarga yetdi.

Bu esa, o'z navbatida, Parij-2024 Paralimpiya o'yinlarida hamda yaqinda Dubay shahrida bo'lib o'tgan yoshlar o'rtasidagi Paraosiy o'yinlarida parasporthilarni yuqori marra bilan egallashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bu ishlar sportning har bir yo'nalishida, jumladan, ta'lim, seleksiya, tibbiyot, infratuzilma, kadrlar tayyorlash, malaka oshirish — barcha-barchasida yuqori natijalarni qo'lga kiritishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotganini alohida qayd etish kerak.

Joriy yilda nafaqat Osiyoda, balki dunyoda noyob bo'lgan Olimpiya shaharchasi barpo etilgani yoki uch bosqichli seleksiyaga ixtisoslashgan Prezident Olimpiadasi musobaqalari tizimi yo'lga qo'yilgani yangi O'zbekistonni sport mamlakatiga aylantirish borasidagi islohotlarning muhim bo'g'ini hisoblanadi.

Biroq bugungi sport sohasidagi islohotlarni qonun darajasida mustahkamlash va xalqaro sport tashkilotlari joriy etgan yangidagi qoidalar bilan takomillashtirish zarurati mavjud bo'lib, 2015-yilda qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun bugungi kundagi yangilanishlar va talablarga to'liq javob bermay qolgan edi.



Yangi qonun

Xususan, unda ommaviy sportni rivojlantirish, sport federatsiyalarining huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari, nogironligi bo'lgan shaxslar sporti, sportda halollikni ta'minlash kabi qator muhim masalalar qonun darajasida to'liq aks etmagandi.

Shuningdek, amaldagi qonun bilan sport turlarini e'tirof etish, sport federatsiyalarini reyestrda kiritish tartibi, kelishilgan o'yinlarga qarshi kurashish kabi masalalar tartibga solinmagani edi. Sportchi, murabbiy, sport hakami, sport agenti va boshqa sport mutaxassislarining, Milliy olimpiya va paralimpiya qo'mitalarining huquq va majburiyatlari belgilanmagani.

Amaldagi surdlimpiya, maxsus olimpiya, ko'zi ojizlar sporti va boshqa adaptiv sport turlarini tashkil etish tartibi, maqsad, vazifalari ham 2015-yilda qabul qilingan qonunda o'z aksini topmagan edi.

Mavjud muammolarni bartaraf qilish hamda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi



o'zgarish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etishda yagona yondashuvni ta'minlash uchun ushbu qonunni yangi tahrirda qabul qilishga zarurat sezildi.

Shu bois, yangi tahrirdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tashabbusi asosida sport mutaxassislari ishtirokida ishlab chiqilib, qabul qilindi. Mazkur qonun mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasini tubdan takomillashtirish, uni zamon talablari asosida yangi bosqichga olib chiqishda muhim huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Bu hujjatning eng muhim jihatlardan biri aholini ommaviy sportga keng jalb qilish mexanizmlari aniq belgilab berilganidir. Endimi ommaviy sport tadbirlari muntazam va tizimli ravishda tashkil etiladi, jismoniy faollikni oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshiriladi. Bu esa aholi salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qonunda sport turlarini e'tirof etish va ularning davlat reyestrini yuritish tartibi

ham takomillashtirildi. Bu orqali sport turlarini rivojlantirishda yagona yondashuv ta'minlanadi, sohadagi boshqaruv tizimi yanada shaffoflashadi.

Hujjatda sportda halollik va adolat tamoyillarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, sport musobaqalari natijalariga noqonuniy ta'sir ko'rsatish holatlariga qarshi keskin choralar belgilangan. Bu esa kelishilgan o'yinlar va boshqa salbiy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, qonunda paralimpiya harakati, shuningdek, Milliy paralimpiya qo'mitasining huquqiy maqomi va vakolatlari aniq belgilab berildi. Qolaversa, yuqorida qayd etganimiz surdlimpiya, maxsus olimpiya, ko'zi ojizlar sporti kabi adaptiv sport turlarini rivojlantirish masalalari ham qonun darajasida mustahkamlandi. Bu esa inkluziv sportni rivojlantirish, barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlar yaratishda dolzarb ahamiyatga ega.

Eng muhimi, yangi qonun sport federatsiyalari, sport klublari va ligalarining huquqiy maqomini belgilab, faoliyatini tartibga soladi. Federatsiyalarni reyestrda kiritish, huquq va majburiyatlarini, boshqaruv tamoyillarini aniq ko'rsatilgani sohada tartib-intizomni kuchaytiradi.

Vengriya, Rossiya, Qozog'iston, Belarus, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlarning sport sohasiga oid qonunchilik hujjatlari o'rganib chiqildi. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun 8 ta bob va 65 ta moddadan iborat bo'lib, amaldagi qonunning 44 ta moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi, shuningdek, sohadagi huquqiy bo'shliqlarni ta'minlash nazarda tutuvchi 18 ta yangi modda qo'shildi.

Eng muhimi, mazkur hujjatda bugungi kunda amaliyotda mavjud bo'lgan ayrim noaniqliklar va huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish, vazirlik va idoralarning hamda hududiy ijro etuvchi hokimiyat organlarining sohaga oid vazifalari aniq belgilab qo'yildi.

Mamlakatimizda sport sohasidagi subyektlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, tizimda boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish, sport federatsiyalari va professional sport klublari boshqaruviga bosqichma-bosqich tadbirkorlarni hamda xususiy investitsiyalarni jalb qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimizning "Sport sohasini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish va sohaga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

qarorida ham ayni yo'nalishdagi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Mazkur qarorning asosiy maqsadi sportni moliyalashtirishning zamonaviy mexanizmlari va muqobil moliyalashtirish manbalarini joriy etish, ajratilayotgan mablag'lar yo'naltirilishini markazlashtirish, byudjet mablag'lari hajmini kengaytirish hamda samaradorligini oshirishdan iborat.

Qaror bilan Sport vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Sport sohasida tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi. Ushbu jamg'armaga yo'naltirilish uchun zarur mablag'lar davlat byudjeti parametrlarida ko'zda tutib borilishi ta'minlanadi.

Bir so'z bilan aytadigan, ushbu qonun hamda qaror sohani yanada rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sportga oid munosabatlarni tizimli tashkil etish, sog'lom turmush tarzini ommlashtirish, yoshlarni jismonan baquvvat etib kamol topirish, sportni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish va yangi O'zbekistonning jahon sport maydonidagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

DAVRGA MOS IMKONIYATLAR VA ZAMONAVIY QIYOFA

Surxondaryo viloyatining Bandixon tumani tarixida har kuni yangi bir sahifa ochilmoqda. Ilgari tumanda ishlab chiqarish korxonalari kam, aholini ish bilan ta'minlash imkoniyatlari cheklangan, infratuzilma rivojlanmagan edi. Hozir hudud iqtisodiy quvvatini oshirish maqsadida katta hajmdagi investitsiya kiritilmoqda. Natijada yangi sanoat korxonalari va ishlab chiqarish quvvatlari barpo etilyapti.



Kambag'allikdan xoli hudud



Bu, o'z navbatida, minglab yangi ish o'rinlari yaratilishiga, aholi bandligi ta'minlanishiga xizmat qilmoqda. Zamonaviy ta'lim muassasalari, maktablar va bog'chalar, tibbiyot muassasalari, yo'l, ichimlik suv, elektr energiyasi, turli muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bosqichma-bosqich yaxshilanmoqda. Qishloq va mahallalar obod bo'lib, aholiga yanada qulay sharoitlar yaratilyapti.

Bandixonning markaziy yo'llaridagi holat besh-olti yil oldin mutlaqo boshqacha edi. Qor-yomg'irda ko'lmak, boshqa paytlarda ko'tarilgan chang osmongacha bo'y cho'zardi. Hozir tumanidagi eng chekka qishloqqaacha asfalt kirib borgan, — deydi mehnat faxriysi Xudoynazar Bekmurodov.

Mahalliy byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan tuman markazidan o'tuvchi yo'l tubdan

ta'mirlanib, zamonaviy ko'rinishga keltirildi. Shuningdek, ushbu hududga 100 ga yaqin tungi yoritish chirog'i o'rnatildi. Tuman hududidan o'tgan davlat ahamiyatiga ega 19 kilometr yo'l asfaltlandi. Ichki yo'llar ham ta'mirlandi. Qator ijtimoiy soha obyektlari barpo etildi. Natijada Bandixon zamonaviy va ko'rkm qiyofa kasb etib bormoqda.

Bandixon, Boysun va Qumqo'rg'on tumanlari tutashgan hududdagi bozor har uchala hudud aholisi uchun muhim savdo maskani. Biroq vaqt o'tishi bilan uning imkoniyatlari va sanitar holati zamon talablariga javob bermay qoldi. Shu bois, bozorni zamonaviy talablar asosida qayta qurish maqsadida Tangimus hududidan 60 gektar yer ajratildi. Yangi loyihani amalga oshirayotgan tadbirkor adimi tekislab, zamonaviy do'konlar va savdo rastalari barpo etish uchun qulay maydon yaratishga kirishgan. Bu ishlarga 1 milliard 200 million so'm yo'naltirilmoqda.

Loyihamiz 2 bosqichda ro'yobga chiqariladi. Birinchi bosqichda 22 ta lot, ikkinchi bosqichda esa 24 ta lot ishga tushiriladi. Natijada 3 mingga yaqin ish o'rni yaratilishi hamda byudjetga 20 milliard so'mga yaqin mablag' tushishi kutilyapti, — deydi tadbirkor Toshpo'lat To'raboyev. — Shu kunlarda hududda 2 ming kub metr sig'imga ega suv to'plash inshooti, 12 kilometrga ichimlik suv, 10 kilometrga tabiiy gaz, 15 kilometrga elektr energiyasi tarmoqlarini tortish hamda 4 ta transformator o'rnatish ishlari bajarilmoqda.

Yangi bozor kelgusida nafaqat uch tuman aholisi, balki butun hudud uchun qulay va zamonaviy savdo markaziga aylanishi kutilyapti. Bozor joylashgan Obikor mahallasida ham so'nggi yillarda infratuzilmani yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, mahalla hududiga beton yo'l yotqizilib, tungi yoritish chiroqlari

o'rnatildi. Piyodalar uchun alohida yo'lakchalar tashkil etildi. Natijada mahalla qiyofasi o'zgarib, yashash uchun yanada obod va shinam muhit shakllanmoqda. Mahalla nuroniyalarining ta'kidlashicha, Obikordagi bunday ishlar aholi tushumida ham sezilarli o'zgarishlar yasa-yapti. Mavjud muammolar bosqichma-bosqich hal etilib, mahalla tobora obod va ko'rkm maskanga aylanib bormoqda.

Mahalla markazidan o'tgan avtomobil yo'lining ikki tomoni bo'yab o'rnatilgan tungi yoritish tizimi yo'llarda xavfsiz harakatlanishni ta'minlaydi. Piyodalar yo'lakchasi esa bolalar, yoshlar va keksalar uchun yanada xavfsiz muhit yaratadi. Bu ta'lim oluvchilar va ota-onalar uchun ham katta qulaylik.

Bandixonidagi iqtisodiy o'sish tufayli Obikor mahallasida kambag'allik darajasi sezilarli darajada pasaygan. Ish bilan ta'minlanish va zamonaviy infratuzilma yaratilishi mahalladagi har bir oila turmushiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tadbirkorlar va ishbilanmonlar safi kengayib, yangi ish o'rinlari yaratilib, aholida erantigi kung oshonchni yanada kuchaytiriyapti.

Tumanda to'qimachilik sanoati rivojlanishi hudud iqtisodiy salohiyati o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, bu yerda sun'iy va paxta tolasini aralashmasidan ip-kalava ishlab chiqarish maqsadida umumiy qiymati qariyb 188,7 milliard so'mlik loyiha amalga oshirildi.

Bandixon va Muzrabot tumanlarida yiliga qariyb 20 ming tonna paxta yetishtiriladi. Korxona ushbu mahsulotni qayta ishlagan mo'ljallangan. U to'liq quvvatida ishga tushirilishi natijasida 300 ayol va yosh doimiy ish bilan ta'minlanadi.

Sarvar TO'RAYEV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

BARCHA SOHADA ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI TA'MINLASH — BOSH MAQSADIMIZ



Murotjon AZIMOV, Qashqadaryo viloyati hokimi, senator

Boshlanishi 1-betda

Birgina aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishi bo'yicha vohamizda tizimli ishlar qilinmoqda. Asosiy maqsadimiz — odamlarni doimiy daromadli qilish.

2025-yilda 518 ming kishini daromadli mehnat bilan band qilish rejalashtirilgan edi. Amalda 578 ming fuqaroning bandligi ta'minlandi va bu jihat soliq bazasida o'z aksini topdi. Shu orqali ishsizlik darajasi 4,9 foizga tushirildi. Ihsiz va ish qidirayotgan 30 mingga yaqin fuqaro kasb-hunar va tadbirkorlik yo'nalishida o'qitildi. Bu borada belgilangan reja 128 foiz bajarildi.

O'tgan yili "Bir kontur — bir mahsulot" tamoyili asosida 1061 gektarda yuqori daromadli va eksportbop qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha 93 ta loyiha amalga oshirildi.

Viloyatda joriy yil 507 ming kishini doimiy ishga joylashtirish, daromadini oshirish va yashirin ish o'rinlarini soyadan chiqarish bo'yicha sohalar, yo'nalishlar kesimida rejalar ishlab chiqilgan.

2025-yilda viloyatda 32 ming 880 oilani kambag'allikdan chiqarish belgilangan edi. 167 mingta oilaning turmush sharoiti o'rganilib, ularning 87 mingtasi kambag'al oilalar reyestriga kiritildi. Shuningdek, 61 ming 800 oilaga barqaror bandlik yo'nalishida qariyb 111,5 mingta xizmat ko'rsatildi.

Reyestrda turgan 53,5 mingdan ortiq oila a'zolari kambag'allikdan chiqarildi. Kambag'allik darajasi 9,6 foizdan 6,5 foizga tushirildi. Viloyatdagi 60 ta mahalla kambag'allikdan xoli hududga aylantirildi.

"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida viloyatdagi 1414 rahbarga 7070 ta kambag'al oila birkiritildi. Mazkur oilalarga 10 ming 600 boshga yaqin chorva, parranda, oziq-ovqat mahsulotlari, daraxt ko'chatlari, kiyim-kechak yetkazib berildi hamda uy-joyini ta'mirlash uchun homiylik yordami ko'rsatildi.

Davlatimiz rahbarining o'tgan yili 19-20-iyun kunlari viloyatimizga tashrifi davomida bergan topshiriqlari asosida aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha Qamashi tajribasi ishlab chiqildi. Natijada 28 mingga yaqin kambag'al oila, mahalla raisi va bank o'rtasida uch tomonlama shartnomalar tuzildi va xizmatlar birkiritildi. 90 ta og'ir mahallaning infratuzilmasini yaxshilash uchun 300 milliard so'm mablag' ajratildi.

2026-yilda mahallalarda loyihaviy yondashuv asosida "Bir mahalla — bir mahsulot" tamoyili asosida yuqori daromadli eksportbop mahsulotlari yetishtiruvchi mahallalar soni 195 taga yetkaziladi. Shundan 36 ta mahallada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda aholi ko'nikmalarini oshirish uchun usta-dehqonlar yollanadi. Ixtisoslashuvdan kelib chiqib 12 ta mahallada namunali tomorqalar tashkil etiladi. 18 ta mahallada aholi tomorqasidagi eng namunali va innovatsion loyihalarni uchun grant ajratiladi.

Kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan xizmatlar bilan 21 ming 628 oila qamrab olinadi. Yil yakunigacha kambag'allik darajasi 3,3 foiz qisqartiriladi.

Bu vazifalarni bajarish uchun imkoniyat ham, mablag' ham, qarorlar ham va ularni nazorat qiladigan mukammal ijro tizimi ham mavjud. Faqat qat'iy intizom, mas'uliyat va shaxsiy javobgarlikni yo'lga qo'yib, vijdonan ishlash zarur.

Bunyodkorlik. Yangilanayotgan O'zbekistonimiz tobora yuksalib borayotgan ulkan

imoratga o'xshaydi. Bu binoga bittagina bo'lsa ham g'isht qo'ya olishning o'zi juda katta baxt!

Bugungi Qashqadaryo ulkan bunyodkorlik maydoniga aylangan. Quruvchilarning azmu shijoati bilan shaharu qishloqlarimiz qiyofasi kun sayin chiroy ochmoqda, yangi bino va inshootlar, yo'llar, ko'priklar, infratuzilma obyektlari bunyod etilmoqda.

O'tgan yili viloyatimizda 7700 xonadonli 176 ta ko'p qavatli uy-joy qurish belgilangan edi. Amalda 8062 xonadonli 208 ta uy-joy foydalanishga topshirildi. Joriy yilgi uy-joy dasturi bo'yicha 7510 xonadonli ko'p qavatli uy-joylar qurilishi mo'ljallanmoqda.

Ijtimoiy va ishlab chiqarish dasturi doirasida 931 milliard so'm mablag' o'zlashtirish hisobiga 133 ta obyektga qurilish ishlari yakunlanib, foydalanishga topshirildi. Joriy yilda mazkur dastur doirasida 1 trillion 200 milliard so'm mablag' o'zlashtirish, 163 ta obyektga qurilish-ta'mirlash ishlari bajarish ko'zda tutilmoqda.

Transport sohasida aholiga ko'plab qulayliklar yaratilmoqda. Jumladan, 2025-yilda zamonaviy 26 ta shahar yo'lovchi avtobusi va 39 ta mikroavtobus xarid qilinib, yo'nalishlarga qo'yildi. Qarshi avtoshohbeka qurib bitkazildi, 65 ta oraliq bekat o'rnatildi va rekonstruksiya qilindi. Qarshi va Shahrisabz shaharlarida 75 ta oraliq bekat qurish va rekonstruksiya qilish ko'zda tutilgan.

Joriy yilda yana 43 ta avtobus xarid qilinib, yo'nalishlarga qo'yildi. Yana 100 dan ortiq zamonaviy avtobus va 50 ta mikroavtobus keltirish rejalashtirilgan.

2025-yilda viloyatimizda jami 1 trillion 674 milliard so'mlik yo'lsozlik ishlari bajarildi. 1391 kilometr avtomobil yo'li va 9 ta ko'priklar rekonstruksiya qilindi hamda ta'mirlandi. Joriy yilda tegishli davlat dasturlari asosida 573,1 milliard so'm hisobidan 435,5 kilometr yo'l ta'mirlanadi hamda 27 ta ko'priklar qayta quriladi.

Vohamizda "Yashil makon" umummilliy harakati doirasida amalga oshirilayotgan tadbirlar hududlarimiz ko'rkiga ko'rk qo'shmoqda. O'tgan yili bahor mavsumida 11 million 222 ming, kuzda 10 million 364 ming tup mevali va manzarali daraxt ko'chati ekildi hamda "Yashil makon" platformasiga kiritildi.

"Mening bog'im" loyihasi doirasida 15 ta yashil bog' va 7 ta "yashil" jamoat parki barpo etildi. Viloyatda o'tgan yili ichimlik suv ta'minotini yaxshilash uchun 39,8 milliard so'm o'zlashtirildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan Qarshigacha Hisorak suvini keltirish bo'yicha ulkan loyihaga asos solinmoqda.

Turizm. Bugun mehnatkash xalqimizning dunyoqarashi, ongu shuuri, hayotga munosabati, yashashga ishtiyoqi o'zgarimoqda. Yurtidoshlarimiz yaxshi ishlagan yaxshi dam olishi zarurligini tobora ko'p anglab, so'lim tabiat qo'nyida maroqli hordiq chiqarish va sayohatni jamoaviy hamda oilaviy an'anaga aylantirib borayotgani bizni juda quvontiradi.

Shuni inobatga olib, "Miraki" MFYdagi 240 gektarli "Shahrisabz" turistik markazida umumiy 1050 o'ringa mo'ljallangan 2 ta 3 yulduzli mehmonxona, xostel va savdo-ko'ngilochar markazi hamda dor yo'li, avtoturargoh va restoran ishga tushirildi.

O'tgan yili viloyatda 47 ta joylashtirish vositasi tashkil etilib, ularning umumiy soni 406 taga yetkazildi. Bu ko'rsatkich 2017-yildagiga nisbatan 25 karrga oshgan. 2026-yili 450 taga yetkaziladi.

Shu bilan birga, Qamashi va Kitobda 3 ta kemping, Shahrisabz va Kitob tumanlarida 40



ta kapsula uyi tadbirkorlar tomonidan bunyod etildi. Yana 15 ta turoperatorlik faoliyati yo'lga qo'yilib, ular soni 66 taga yetkazildi. Joriy yilda yana 16 tasi ochiladi.

Natijada viloyatga 3,6 million mahalliy, 604 ming xorijiy turist jalb etildi. Turizm xizmatlari eksporti 121 million dollarga yetdi. Bu boradagi reja 118 foiz bajarildi. 2026-yilda 3,7 million mahalliy, 620 ming xorijiy turist safari tashkil etilib, turizm eksporti qiymati 124 million dollarga yetkaziladi.

2024-yilda Shahrisabzdagi "Miraki" MFYga "Turizm mahalla'si, o'tgan yili Kitobdagi Bashir, Qaynar va Shahrisabzdagi G'elon qishloqlariga "Turizm qishlog'i" maqomi berildi. Joriy yilda Kitob tumanidagi Jayraxona va Yakkabog' tumanidagi Tatar qishloqlari "Turizm qishlog'i"ga aylantirildi.

Qarshi shahridagi Nasaf ko'chasi va "Vatanparvar" bog'i hududida 24/7 rejimida faoliyat yurituvchi 2 ta ko'cha tashkil etildi. Joriy yilda bunday ko'chalarni 12 taga yetkazish reja qilingan. Turistlar soni oshishi natijasida Shahrisabz — Toshkent yo'nalishidagi samolyotlar o'tgan yildan haftasiga 6-marta qatnamoqda.

O'tgan yili sohada umumiy qiymati 80 million dollarlik 27 ta investitsiya loyihasi ishga tushirildi. Natijada turizm va unga yondosh sohalarda jami 2320 ta ish o'rni ochildi.

Joriy yil "Shahrisabz" turistik markazida qiymati 500 milliard so'mlik 13 ta loyihani amalga oshirish, bu orqali 300 ta yangi ish o'rni ochish ko'zda tutilgan. Shahrisabz tumanining "G'elon" va "Sarchashma" MFYlarida 2919 gektarli "G'elon" turistik-rekreatsiyon zonasi tashkil etildi.

Qiymati 300 million dollarlik xalqaro umummavsumiy kurortiga start berilib, 4,2 million dollar investitsiya jalb qilindi. Kelgusi yilda shale shaklidagi uylar majmuasini tashkil etish va dor yo'llarini qisman ishga tushirish orqali bu ko'rsatkich 50 million dollarga yetkaziladi.

"Maydanak baland tog'" turistik markazida umumiy qiymati 49,3 milliard so'mlik loyiha amalga oshirilmog'da. Shu bilan birga,



Qamashida 65,7 gektar, G'uzorda 42 gektar hamda Shahrisabz tumani Hisorak-G'elon yo'li bo'yalarida 16,3 gektar maydonda turizm infratuzilmasi rivojlantirildi. Chimqo'rg'on va Pachkarnar uchun obdolari asosiy faoliyatiga ta'sir emaydigan hududlarni suv turizmi yo'lga qo'yildi.

Yoshlar masalasi. Biz uchun yoshlar bilan ishlash — tadbir o'tkazish emas, balki ularning salohiyatini ro'yog'ga chiqarish demakdir. Yoshlarni kasbga yo'naltirish, ularga zamonaviy bilim va texnologiyalarni o'rgatish, iqtidorlilarni ko'lab-quvvatlash endi ikkinchi darajali masala emas, balki har bir rahbarning shaxsiy javobgarligidir.

Viloyatimizda keyingi yillarda iqtidor, qiziqishdan kelib chiqib, maktab o'quvchilari uchun turli loyihalarni yo'lga qo'yidik. Jumladan, 3 yildan buyon o'quvchilar o'rtasida viloyat hokimi olimpiadasi o'tkazilmog'da. Viloyat hokimi stipendiyasi ta'sis etildi. Sport yo'nalishida "Maktablar ligasi" musobaqalari, san'at, madaniyat yo'nalishida "Ijodkor yoshlar" ko'rik-talovi o'tkazilmog'da. O'quvchilarda AT, robototexnika ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida AQSH kompaniyasining 180 ming dollarlik grant mablag'i jalb etildi. Maktablarda xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish maqsadida AQSH, Rossiya, Filippindan malakali o'qituvchilar olib kelindi.

Bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga kirish ko'rsatkichi 2025-yilda 50,4 foizni tashkil etdi. Milliy va xalqaro sertifikatga ega o'qituvchilar soni 3368 ga yetdi. Yangi yil arafasida 134 xotin-qizning oliy ta'lim olishi uchun shartnoma puli to'lab berildi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2026-yil yakuniga qadar 3-7 yoshli bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovi 78, bitiruvchi sinf o'quvchilarning oliy ta'lim muassasalari kirish ko'rsatkichi 55 foizga yetkaziladi.

Viloyatda kasbiy ta'limni takomillashtirish borasida ham qator tadbirlar amalga oshirilmog'da. Texnikum mas'ullari 1062 ta korxonaga va tashkilot bilan dual ta'limni tashkil etish bo'yicha shartnomalar imzoladi. O'quvchilarning 20 foiz dual ta'limga qamrab olinadi. Shuningdek, 6 ta texnikumda nemis standartida kasbga o'qitish yo'lga qo'yildi. Loyiha doirasida 32 o'qituvchisi Germaniyada malaka oshirdi, 256 o'quvchi maxsus test sinovlari orqali qabul qilindi.

Joriy yilda Qashqadaryo ilg'or kasbiy mahorat texnikumi ochiladi. Uning bazasida Germaniya bilan hamkorlikda "Ta'lim va texnologiyalar markazi" faoliyati yo'lga qo'yiladi. Bitiruvchilarni Germaniyaning turli ishlab chiqarish korxonalariga ishga joylashtirish choralar ko'riladi. Bundan tashqari, 2 ta texnikumda "Xitoy — O'zbekiston ustaxonasi" tashkil etiladi. Dual ta'lim asosida o'qishga qamrov 40 foizga yetkaziladi. Umumta'lim maktablarining 21 ming nafar 9-sinf bitiruvchisi texnikumlarga qabul qilinadi.

Tibbiyot. Keyingi yillarda sog'liqni saqlash tizimida tub o'zgarishlar yuz bermog'ga. Xalqimiz islohotlar samaradorligiga, eng avvalo, tibbiyotdagi o'zgarishlarga qarab baho beradi degan yondashuv soha xodimlarini yanada mas'uliyat bilan ishlashga undamog'ga.

2025-yili yuqori texnologik 7416 ta jarrohlik amaliyoti o'tkazildi. Kitob va Kasbi tumanlarida respublikada ilk bor buyrak transplantatsiyasi



muvaffaqiyatli bajarildi. Kadrlar salohiyatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. 29 shifokor xorijiy davlatlarda malaka oshirdi.

Xususiy tibbiyot ham jadal rivojlanmog'ga. Viloyatda bunday muassasalar soni 748 taga yetdi. Tibbiy turizm salohiyati oshmog'ga. Boshqa viloyatlar, qo'shni davlatlardan bemorlar davolanish uchun viloyatimizdagi nufuzli klinikalarga murojaat qilmog'ga. Raqamlashtirishga 18 milliard so'm ajratilib, barcha tibbiyot muassasalarida yagona axborot tizimi joriy etildi.

Yangi tizim yo'lga qo'yilgan Kitob tumanida tibbiyot brigadalari va aholi o'rtasida ikki tomonlama shartnoma tuzildi. Natijada aholining birlamchi bo'g'iga murojaati 30 foizdan 70 foizga oshdi, tuman yoki viloyat shifoxonalarga murojaat 35 foiz kamaydi.

Qashqadaryo tajribasi asosida tibbiyot brigadalarni rag'batlantirish yo'lga qo'yilgani sababli 250 fuqaroda onkologik kasalliklar erta bosqichda aniqlanib, 40 milliard so'm tejaldi.

Keyingi yillarda ham birlamchi bo'g'inni rivojlantirish, yuqori texnologik tibbiy yordam turlarini kengaytirish, raqamlashtirish, xizmatlar shaffofligini oshirish, tibbiy sug'urtani takomillashtirish ustuvor masalamiz bo'lib qoladi. Onalar va bolalar salomatligini saqlash, kasalliklarni erta aniqlash orqali nogironlikni kamaytirish, tibbiyotni yanada xalqchil sohaga aylantirish, odamlarni ushbu tizimdan roz qilib shaxsiy masalasi doimiy e'tiborimizda bo'ladi.

Aholining tibbiy madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Mahalladan boshlab to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollikni oshirish bo'yicha amaliy ishlar yanada kuchaytiriladi.

Investitsiya. Aslida, chetdan kiritiladigan sarmoya qaroq yerga hayot bag'ishlaydigan daryoga o'xshaydi. Daryo zaminiga obodlik ulashgani singari xorijiy investitsiya mamlakatimiz taraqqiyotiga, pirovardida odamlarimiz ro'zg'orining obodligiga, farovonligiga xizmat qiladi. Iqtisodiyotimiz daryosiga qo'shiladigan har bir dollar sarmoya tadbirkorlik rivojiga, yangi ish o'rinlari ochish, yurtidoshlarimiz daromadini oshirish, ko'chalarimiz, mahallalarimiz qiyofasining o'zgarishiga sabab bo'ladi.

200 dan ortiq xorijiy hamkorlarning viloyatga safari uyushtirildi. Elchixonalar va diplomatik korpus vakillari bilan yaqin hamkorlikda o'ndan ortiq yirik xalqaro biznes-forum hamda xorijiy kompaniyalar ishtirokida 80 dan ziyod uchrashuv o'tkazildi. Malayziya va Fransiyada viloyatning "Savdo uylari" ochildi.

Investitsiya dasturlari doirasida qiymati 2,2 milliard dollarlik 618 ta loyiha ishga tushirildi. Natijada 18 mingta barqaror ish o'rni ochildi. Ekspert geografiyasi 54 davlatga kengaytirildi. Viloyatda 58 ta sanoat zonasi tashkil etilgan.

2025-yilda qiymati 228 milliard so'mlik 40 ta loyiha ishga tushirilib, minglab ish o'rni ochildi. Masalan, "Alp texno servis" MCHJ jamoasi xalqaro brendlar ostida televizor va monitor ishlab chiqarib, eksport qilmog'ga. Ushbu mahsulotlarni mahalliylashtirish darajasi 45 foizga yetdi. Jamoa ekspert geografiyasini Ozarbayjon, Qozog'iston, Rossiya, Qirg'izistonga kengaytirib, 12 million dollarlik mahsulot eksport qildi.

Shuningdek, Qarshi shahrida "Langar vater" MCHJ tomonidan qiymati 10 million dollarlik ma'danli ichimlik suvni qadoqlash loyihasi amalga oshirildi va 40 ta ish o'rni ochildi.



“ QASHQADARYO — AGRAR VILOYAT, LEKIN ENDI ESKI USULLAR BILAN YUQORI NATIJAGA ERISHIB BO'LMAYDI. PREZIDENTIMIZ KO'RSATMALARIDAN KELIB CHIQIB, AGRAR SOHADA ISLOHOTLARNI JADALLASHTIRISH YO'LIDA ENG MUHIM VAZIFALARIMIZNI BELGILAB OLGANMIZ.

Joriy yilda 2 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish va 1,5 barobar iqtisodiy o'sishni ta'minlash rejalashtirilgan.

Qishloq xo'jaligi. Bugun o'ziga xos an'analar ega Qashqadaryo dehqonchilik maktabi tobora rivojlanmog'ga. Agrar soha taraqqiyoti yangi bosqichga ko'tarilmog'ga.

Buning tasdiqini o'tgan yili viloyatimizda 1 million tonnaga yaqin g'alla, 552 ming tonna paxta, 950 ming tonnadan ortiq sabzavot va poliz ekini, 347 ming tonna meva va uzum, 230 ming tonna kartoshka, 2,9 ming tonna pilla yetishtirilgani misolida yaqqol ko'rish mumkin. Chorvachilikda 522 milliard so'mlik 251 ta loyiha amalga oshirilib, chetdan 15 ming bosh qoramol, 50 ming bosh qo'y olib kelindi.

Bundan tashqari, 27 milliard so'mlik 18 ta parrandachilik, 6,1 milliard so'mlik 6 ta baliqchilik loyihasi ishga tushirildi, 2,6 ming tonna asal yetishtirildi. Soha xodimlari vohamizda agroturizmni rivojlantirishga ham katta hissa qo'shmoqda.

Davlatimiz rahbari Qashqadaryoga tashrifi chog'ida Shahrisabzdagi agroturizm majmuasi bilan tanishib, uning faoliyatiga yuksak baho bergani barchamizni behad quvontirdi.

Qashqadaryo — agrar viloyat, lekin endi eski usullar bilan yuqori natijaga erishib bo'lmaydi. Prezidentimiz ko'rsatmalaridan kelib chiqib, agrar sohada islohotlarni jadallashtirish yo'lida eng muhim vazifalarimizni belgilab olganmiz.

Avvalo, mintoqamizda yildan yilga kuchayib borayotgan yuv tanqisligi sharoitida mavjud zaxiralarning tilloga teng har qatrasini qadrlashimiz shart. Suv tejoychi texnologiyalarni keng joriy qilish, kanal, ariqlarni betonlashtirish, suv olish nuqtalarini o'lchash vositalari va to'siqlar bilan omnaviy jiljilash lozim.

Paxtachilikda 27 ming gektar yerda xorijiy navdagi chiqit ekilgani va "Shinjon" texnologiyasi qo'llangan natijasida yuqori hosil olishga erishildi. 2026-yilda mazkur texnologiyani 55 ming gektarda joriy qilamiz.

O'g'it va suti yetishtirish hajmini oshirish, chorvachilikda naschillikni yaxshilash, xorijdan zotdor mollarni olib kelib, ko'paytirish bo'yicha boshlagan ishimizni izchil davom ettiramiz. Yangi bog' va tokzorlar tashkil qilish, mevasabzavotni qayta ishlash, eksportini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yirik loyihalarni ishga tushiriladi.

Joylarda murojaatlar bilan ishlash tizimi ham mutlaqo yangi bosqichga chiqdi. O'tgan yili virtual va Xalq qabulxonalar orqali fuqarolardan tushgan murojaatlar 26 foiz kamaydi.

Rahbarlar qabulini tashkil etish, takroriy va jamoaviy murojaatlar ham sezilarli darajada qisqardi. Joylarda 9000 ga yaqin sayyor qabul o'tkazib, 77,5 ming fuqaroning murojaati o'rganildi. Murojaatlarning 72 foizi joyida ijobiy hal qilindi. Qo'llanilgan huquqiy tushuntirish berildi. Bu sa'y-harakatlarimizdan to'xtab qolmagan holda murojaatlar bilan ishlashda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlarini keng joriy etishni boshlab yubordik.

Ijtimoiy himoya tizimidagi islohotlar ham o'z natijasini bermog'ga. Ilgari viloyatda har uch o'yladan biri ijtimoiy nafaqa olgan bo'lsa, aholi bandligini ta'minlash natijasida bugun nafaqa olovchi oilalar ulushi 7 foizga tushdi.

Joriy yil 13-mart kuni Prezidentimiz raisligida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish, Xalq qabulxonalar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videosektor yig'ilishida barcha hududlar rahbarlariga har bir ariza va shikoyatni chuqur tahlil qilib, mas'ullar kesimida taqsimlash bo'yicha Qarshi shahri misolida ko'rsatilgan tizimni samarali yo'lga qo'yib, odamlarning og'irini yengil qilish vazifasi qo'yildi. Bu boradagi ish rejalar har oy mahalliy kengashlarda tasdiqlanib, aholiga yetkazib boriladigan bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, barcha sohada islohotlar samaradorligini ta'minlash, inson qadriini ulug'lash, Prezidentimizning farmon va qarorlari ijrosi ortidan aholining farovon hayot kechirishi uchun zarur sharoit yaratish doimo eng asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qoladi.

“Maydanak baland tog'” turistik markazida umumiy qiymati 49,3 milliard so'mlik loyiha amalga oshirilmog'ga. Shu bilan birga, Qamashida 65,7 gektar, G'uzorda 42 gektar hamda Shahrisabz tumani Hisorak-G'elon yo'li bo'yalarida 16,3 gektar maydonda turizm infratuzilmasi rivojlantirildi.





Tahlil



Insoniyat taraqqiyotini baholash uchun ba'zan murakkab raqamlar yoki ilmiy tahlillar shart emas. Shunchaki bir avlod nariga nazar tashlash kifoya. Masalan, bir zamonlar ho'kiz va eshak qo'shib yer haydagan, urug'ni qo'l bilan sepgan, hosilni o'roq bilan o'rib, xirmon ko'targan bobolar davri bugun texnika shovqini ortida qoldi. Yer qadamlab o'lgan, mehnat esa asosan jismoniy kuchga tayangan davr o'tirni traktorlar, kombaynlar va aniq hisob-kitoblarga asoslangan zamonaviy texnologiyalar egalladi. Insonning mehnati yengillashdi, vaqti tejaladi, hosildorlik ortdi.

QISHLOQ XO'JALIGIDA TRANSFORMATSIYA: texnologiya, bilim va barqaror taraqqiyot yo'li

Biroq taraqqiyot faqat qulaylik degani emas. Tabiat bilan munosabat ham tubdan o'zgarib qoldi. Ilgari tizza bo'yi qorlar, seryog'in bahorlar va barqaror fasllar endi kamyob hodisaga aylanib bormoqda. Harorat yil sayin ko'tarilmoqda, suv tanqisligi kuchaymoqda, yer umumdorligi pasaymoqda. Natijada oziq-ovqat xavfsizligi nafaqat alohida hududlar, balki butun dunyo miqyosidagi muammoga aylandi. Endi sun'iy yomg'ir yog'dirish texnologiyalari, tuproq tarkibini aniq o'lchaydigan uskunalar, yuqori hosildor navlar va raqamli kuzatuv tizimlari ishlab chiqilmoqda. Bularning barchasi o'zgaruvchan iqlim sharoitida barqarorlikni saqlashga qaratilgan.

Shu yil 23-fevral kuni davlatimiz rahbari qishloq xo'jaligini maxsus texnika bilan ta'minlash hamda sohaga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi. Qishloq xo'jaligi sohasidagi o'zgarishlar yurtimizda ham keng ko'lamda tatbiq etilmoqda. Bugun O'zbekiston qishloq xo'jaligida mexanizatsiyalashuv darajasi 81 foizni tashkil etib, tarmoqdagi muhim transformatsiyaning yorqin ifodasiga aylandi. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, fermerlarning mehnatini yengillatish va yer resurslaridan qo'llana foydalanishda ham asosiy omildir. Sohadagi izchil islohotlar tarixiy o'zgarishlardan ilhomlanib, inson va texnika o'rtasidagi muvozanatni mustahkamlashga qaratilgan.

Jumladan, so'nggi yillarda 1756 ta paxta terish mashinasi xarid qilindi va paxta terimi mexanizatsiyalashuvi darajasi 52 foizga yetgani qishloq xo'jaligi tarixidagi muhim bosqichdir. O'tgan mavsumda mashina yordamida 2,1 million tonna paxta yig'ib olingan. Bu keyingi besh yilda qo'l mehnatidan foydalanishning 1,8 barobar qisqarishiga xizmat qildi. Ushbu ko'rsatkichlar ishlab chiqarishda texnologiyadan foydalanishning ahamiyatini va inson mehnatini samarali tizimga aylantirish zaruratini yanada ravshan namoyon etadi.

Navbatdagi vazifa paxtani mashinada terish ulushini kamida 70 foizga yetkazishdir. Ushbu maqsad uchun 2026-yilda 800 ta paxta terish mashinasi, shuningdek, 6000 ta seyalka, traktor va kombayn xarid qilinishi rejalashtirilgan. Umuman, yil davomida 10 mingga yangi texnika sotib olib, qishloq xo'jaligi texnikalarini 292 mingga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Bu hosildorlikni oshirish, texnologiya va bilim asosida samarali ishlab chiqarishni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi texnikalarni fermerlarga qulay shartlarda taqdim etish maqsadida xalqaro moliya institutlaridan 400 million dollar jalb qilindi. Bu mablag' orqali texnika milliy valyutada 2 yillik imtiyozli davr bilan 10 yilga 18 foiz stavkada beriladi. Kredit stavkasining 8 foizi davlat byudjeti hisobidan qoplanadi. Bunday mexanizm fermerlarning moliyaviy yukini yengillatib, zamonaviy texnikadan samarali foydalanishga ilhomlantirish bilan birga qishloq xo'jaligida texnologik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Taqdimotda mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mashinasozligini rivojlantirish, mahalliy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni kengaytirish ustuvor vazifa



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Kartoshkani "ikkinchi non" deyishadi. Undan 500 dan ziyod turli taom tayyorlanishi bilan birga spirt, kraxmal, dekstrin, glyukoza, kauchuk va boshqa sanoat mahsulotlari olinadi. Kartoshkadan ajratiladigan spirt tibbiyotda, kraxmal esa qog'oz, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatlarida tengi yo'q xomashyo hisoblanadi.



Agrar tarmoq

Madaniy kartoshkaning asl vatani Janubiy Amerika qit'asining Ekvador va Peru mamlakatlari hisoblanadi. Eramizdan 1-2 ming yil muqaddam uning turli navlari ekin sifatida o'stirila boshlangan. Ispanlar Peruga kelganida kartoshkani o'zlari bilan Ispaniyaga olib qaytgan. U Ispaniyadan Yevropaga tarqalgan va asta-sekin hamma xush ko'rib iste'mol qiladigan o'simlikka aylangan.



KARTOSHKANING ENG SARASI VA BOZORGIRI YANGIQO'RG'ONDA YETISHTIRILADI

Kartoshkani "ikkinchi non" deyishadi. Undan 500 dan ziyod turli taom tayyorlanishi bilan birga spirt, kraxmal, dekstrin, glyukoza, kauchuk va boshqa sanoat mahsulotlari olinadi. Kartoshkadan ajratiladigan spirt tibbiyotda, kraxmal esa qog'oz, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatlarida tengi yo'q xomashyo hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat reyestriga kartoshkaning 63 ta navi kiritilgan. U ituzumgullilar oilasiga mansub bo'lib, aslida, yo'g'onlashgan ildizdir.

Bugungi kartoshka o'zining Janubiy Amerikadagi ajdodlaridan keskin farq qiladi. Undagi o'zgarishlar turli ishlov berish usullari yordamida vujudga kelgan. Odamlar hamisha kartoshkaning hosildor, kasalliklarga chidamli, uzoq saqlanadigan, rangi ta'bg'a o'tiradigan turlarini yetishtirishga intilib kelgan. Shuning uchun ham uning eng yaxshi tuganaklari urug'likka tanlab olingan.

Namangan shahridagi Chorsu dehqon bozorida, qolaversa, barcha tumanlardagi bozorlarda ham xaridorlar ko'proq Yangiqo'rg'on kartoshkasini so'rashadi. Chunki bu kartoshkaning ta'mi o'zgacha, uzoq vaqt saqlanadi. Buning zamirida, shubhasiz, tajribali dehqonlarning izlanishlari va mashaqqatli mehnati yotadi.

Bilasmiz, bir zamonlar bu ekinning gulini odamlar juda yoqtirgan ekan, sariq, oq, nimpushti gullari uchun ham ekishgan deb eshitganman, — deydi yangiqo'rg'onlik nuroniy Muhammadjon Mahmudov. — Kartoshkani 1860-1870-yillarda Ukrainadan surgun qilinganlar biz tomonlarga olib kelgan, deyishadi. Dastlab uni mol-qo'yarga ozuqa uchun yetishtirgan. Odamlar esa kartoshka o'rinda sholg'om, turp, sabzini ishlatgan. Yillar o'tib, u mahalliyashtirilgan va 1950-yillardan Yangiqo'rg'on xonaki navlar iste'mol uchun yetishtirila boshlangan.

Shunday qilib, g'alla, olma va nok, olxo'ri sirasida kartoshka ham Yangiqo'rg'on tumani qishloq xo'jaligining eng asosiy mahsulotlaridan biriga aylangan.

Tumanda 68 ta mahalla va 49 ming 377 tadan ziyod xonadon, shuningdek, 39 ming 923 ta tomorqa yer egasi, 4702 ta dehqon xo'jaligi bor.



Shuningdek, aholi tomorqalarida urug'lik kartoshka yetishtirishni kengaytirish maqsadida Buloqboshi va G'ovazon mahallalari tanlab olingdi. Masalan, 2025-yilda Buloqboshi mahallasidagi 22 xonadonga jami 1800 kilogramm super elita yuqori reproduktiv urug'lik kartoshka yetkazib berildi va yaxshi natijalarga erishildi.

O'tgan yili Yangiqo'rg'on tumani va Janubiy Koreyaning Bueo shahri hokimliklari o'rtasida Yangiqo'rg'on tumanida "K-Buyeo Guttare" ixtisoslashtirilgan kartoshka urug'lik kompleksini yaratish uchun aseptik urug'lik kartoshkasini ommaviy ishlab chiqarish texnologiyasini transfer qilish bo'yicha kelishuv ham imzolandi. Yigirma besh yil muddatga tuzilgan shartnomaga ko'ra, koreyalik mutaxassislar tomonidan urug'lik kartoshka yetishtirish ishlari 4 bosqichda



Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 14-avgustdagi "Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumanida kartoshka urug'chiligiga ixtisoslashgan ilmiy-ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori ijrosini ta'minlash borasida tumanda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, kasb-hunariga o'qitish markazi negizida Yangiqo'rg'on agrotexnologiyalar texnikumi tashkil etildi. Tuman xazirasida bo'yilgan, bo'sh turgan 13,2 gektar sug'oriladigan yerni 30 yil muddatga Namangan ilmiy tijriya stansiyasiga tijriya xo'jaligini tashkil etish uchun ijara huquqi asosida ajratish taklifi berildi.

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan "Tomorqa yer egalari xonadonlarida asosiy ekin sifatida kartoshkaning mahalliy "O'zbekiston qizili" va takroriy ekin sifatida bo'yilgan, bo'sh turgan 13,2 gektar sug'oriladigan yerni 30 yil muddatga Namangan ilmiy tijriya stansiyasiga tijriya xo'jaligini tashkil etish uchun ijara huquqi asosida ajratish taklifi berildi.

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan "Tomorqa yer egalari xonadonlarida asosiy ekin sifatida kartoshkaning mahalliy "O'zbekiston qizili" va takroriy ekin sifatida bo'yilgan, bo'sh turgan 13,2 gektar sug'oriladigan yerni 30 yil muddatga Namangan ilmiy tijriya stansiyasiga tijriya xo'jaligini tashkil etish uchun ijara huquqi asosida ajratish taklifi berildi.

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan "Tomorqa yer egalari xonadonlarida asosiy ekin sifatida kartoshkaning mahalliy "O'zbekiston qizili" va takroriy ekin sifatida bo'yilgan, bo'sh turgan 13,2 gektar sug'oriladigan yerni 30 yil muddatga Namangan ilmiy tijriya stansiyasiga tijriya xo'jaligini tashkil etish uchun ijara huquqi asosida ajratish taklifi berildi.

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan "Tomorqa yer egalari xonadonlarida asosiy ekin sifatida kartoshkaning mahalliy "O'zbekiston qizili" va takroriy ekin sifatida bo'yilgan, bo'sh turgan 13,2 gektar sug'oriladigan yerni 30 yil muddatga Namangan ilmiy tijriya stansiyasiga tijriya xo'jaligini tashkil etish uchun ijara huquqi asosida ajratish taklifi berildi.

amalg oshiriladi. Loyiha bo'yicha 1,5 yil davomida 1000 gektar yer maydonida 35 ming tonnadan ziyod sara urug' yetishtirish ko'zda tutilmoqda.

Tumanda 2025-2026-yillar qish-bahor mavsumida ichki iste'mol bozori barqaror ta'minlash, narx-navo o'sishining oldini olish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xaziraga jang'arish ishlari ham tizimli yo'lga qo'yildi.

Belgilangan rejaga muvofiq, joriy mavsumda jami 5126 tonna mahsulot xazirasi yaratildi. "Birlashgan Feruz-Umid oroli" agrofirma shahridagi va G'ovazon mahallasidagi 100 dan ortiq xonadonda "Yangiqo'rg'on kartoshkachilik markazi tomorqa xizmati" MCHJ tomonidan yetishtirilgan 2000 tonnadan ziyod kartoshka mahsuloti xavfsiz saqlanmoqda.

Sabzavotlarni yerto'lalarda saqlash bo'yicha aholining o'z tajribasi bor. G'ovazonliklar turar joylari yerto'lasida kartoshka saqlash uchun zarur sharoitni yaratgan. Keng va yorug' yerto'lalarda havo aylanish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Devorlarning somonli loy bilan qalin suvoq qilingani bahor fasligacha xonadagi namlik bir me'yorda bo'lshini ta'minlaydi. Mahsulot sifati nazorat qilib boriladi. Kartoshkaning yaxshi saqlanishi yetarli miqdordagi xazira qish va erta bahorda ham aholini arzon qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashga zamin yaratadi.

Tumanda 2026-yilda jami 3581 gektar maydonga kartoshka ekish rejalashtirilgan, — deydi viloyat Agroxizmatlar markazi bosh mutaxassisi Rustamjon Ma'murov. — Uning 2581 gektari asosiy maydonlar, 350 gektari bog' orasi, 650 gektari esa g'alla va asosiy ekinidan bo'shagan maydonlardir. Ushbu maydonlarga talab etiladigan kartoshka urug'i jami 10 ming 743 tonnani tashkil etadi. Ana shu urug'likning 10 ming 443 tonnasini fermer xo'jaliklari xazirasida. Urug'lik kartoshkaning Niderlandiya, Rossiya va Pokistondan olib kelingan "Konstansa", "Arnova", "Santa paradiso", "Gala", "Arizona", "Kolumba" navlaridan mo'l hosil olishga umid qilinmoqda.

o'sayotganida ko'rinib turibdi. Masalan, 2024-yilda hosildorlik gektariga 220 sentnerni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 260-270 sentnerga to'g'ri keldi.

Mo'l hosilni ko'rib, dehqonchilikka suyagi qotgan, kaftekkina tomorqasidan ham yaxshigina daromad topayotganlarga tahsinlar ayting keladi.

Ko'kyorlik Sobirjon Mirzarahimov ana shunday dehqonlardan biri.

Tog'li hududda yashaymiz, yerdan bor-yo'g'i bir marta hosil olamiz, deydi qishloq xonadoni, — deydi Sobirjon Mirzarahimov. — Martning yarmidayoq 5 sotix tomorqamizda ish boshlanadi. "Bozorga yangi kartoshka chiqibdi", degan xabarning o'ziyoq meni shoshirib qo'yadi. "Yerim bor, nega men ertaroq ekib-tikmayman", deya ketmonimni qo'lga olaman. Qish bo'yi asragan urug'ligimizni 4 sotixga ekib, mehr bilan parvarishlayman. Eng asosiy, qo'yxonamizdan chiqqan go'ng bilan oziqlangan hovlimiz serunum, tuprog'i oltinga teng. Mayning oxiriga borib hosil yig'ishtiramiz, ro'zg'orimizdan ortganini esa bozorga olib boramiz. Kartoshkadan bo'shagan yerimizga iyun oyida makkajo'xori, loviya, sabzi, piyoz ekamiz. Ikki tup gilos, ikki tup o'rigimizdan ham yaxshigina daromad olamiz.

Yurtimizda qishloq xo'jaligida ham bozor mexanizmlari joriy etilmoqda. Yerning ijaraga berilishi, tomorqachi yoki dalchalarning o'z mahsulotlarini mustaqil holda sotishi, davlat buyurtmalari kamayishi, albatta, fermer, dehqon va tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Buloqboshi mahallasidagi "Jaylanov Zumdaxton" fermer xo'jaligi a'zolari 21 gektar yerda dehqonchilik qiladi. Yerning 7 gektari bog', 14 gektari ochiq maydon. Xo'jalikda 5 ischi bor. Karimjonning akasi Nosirjon Jaylanov asli advokat bo'lsa-da, dehqonchilikka mehri baland. Ukasiga doimo kamabasta.

Yerimiz adir emas, tekis maydon, — deydi fermer Karimjon Jaylanov. — Shunday unumdor, tuprog'i zarga teng joydan yiliga 3 marta hosil olmasak, uyat bo'ladi. Dehqonchilikda almashlab ekishning koni foyda ekani hech kimga sir emas. Biz ham yozda g'allani o'rib-yig'ib olgach, sifati shudgorlab, kartoshka ekishni boshlaymiz. Kartoshkaning "Lisunya", "Konstansa" navlarini ekib, agrotexnika tadbirlarini o'z vaqtida bajaramiz. Bu nav sifati, ta'mi bilan boshqalardan ajralib turadi. O'n yil muddat Niderlandiyaning "Santa" navini ekdik, keyinchalik urug'likni yangilash, yoshartirish zaruriyati paydo bo'ldi.

Fermerning aytishicha, ekinni suvdan kamsitmaslik, mahalliy o'g'it va karbamid, sulfat ammoniy kabi mineral o'g'itlarni me'yorida berish, choqiqlarni vaqtida o'tkazib, hosil kushandalariga qarshi kurashish mo'l ilmiy garov.

O'tgan yili 80 kunlik mehnatimiz o'z samarasini berdi, gektaridan 35 tonnadan hosil oldik, — deydi fermer. — Biroq bu natija 2024-yildagidan kam. Boisi, 11-iyunda yoqqan do'l o'z ta'sirini ko'rsatdi, lekin biz tushkunlikka tushmadik. Ekinni 12 marta obihayotga qondirdik.

Fermer dalasida suvdan muammo yo'q, 2 ta artezian qudug'i sulvasi foydalanadi. Fermer dehqonning qonogiga aylangan, og'irini yengil qiladigan qishloq xo'jaligi texnikalarini sotib olishga ham erishmoqda. Kartoshkadan 500 million so'm daromad olingani evaziga o'yilgan rejalari ro'yobga chiqdi.

Joriy yilda ham oldimizga katta maqsadlar qo'yganmiz, — deydi Karimjon Jaylanov. — 9 gektarga kartoshka ekamiz, daromadimizni 1 milliard so'mga yetkazishni mo'ljallayapmiz. O'zimizning yerto'lamizda 40 tonna sara urug'lik g'amlab qo'yganmiz.

Fermer joriy yilning avgustgacha 100 tonna mahsulot saqlaydigan omborxonaga qurib ishga tushirmoqchi. "Sifatlil, sara urug'dan mo'l hosil yaraladi, fermer uchun, birinchi navbatda, zamonaviy, barcha qulayliklarga ega bo'lgan muzlatkich ombor bo'lishi juda muhim", deydi u.

Iqlimi nisbatan sovuq, tog'lar qurshovidagi Qizilyozi, Ko'kyor mahallalarida hosilni saqlash bo'yicha alohida tajriba maktabi bor. Demochimizki, aholi o'z tomorqasida yetishtirgan mahsulotini yerto'lada sifatlil saqlab, "Ikkinchi qo'l"ga bermay, o'zi sotadi, daromad topadi. Bu ham dehqonchilikning bir gashiti.

Hozir Yangiqo'rg'on tumanida meva saqlanadigan 48 ta zamonaviy muzlatkich omborxonaga qurilmogda. Shulardan eng yirigi — "Turkiston-Sadoqat baxt-iqbol" agrofirma shahridagi "Islomjon-Bahromjon-Ilhomjon" fermer xo'jaligiga qarashli omborxonaga. Ushbu omborxonaga xo'jalik rahbari Ilhomjon Tog'ayev bankdan imtiyozli kredit olib, 2020-yilda qurib, ishga tushirdi. Uning 8 ta xonasi bo'lib, har birida 100 tonnadan mahsulot saqlash imkoniyati mavjud.

Ayni kunlarda xo'jalik ishchilarining yumushi ko'paygan. Kimdir iste'mol uchun mahsulot olgani tashrif buyursa, kimdir urug'lik kartoshka so'rab keladi.

2025-yilda omborxonaga 1000 tonnadan ortiq kartoshka qo'ygandik, — deydi fermer xo'jaligi rahbari Ilhomjon Tog'ayev. — Fermer va tomorqachilar bizga mahsulotini olib kelganida, ularning eng birinchi talabimiz, saralanganmi-yo'qmi, shuni so'rash bo'ladi. Chunki qo'ldan o'tkazilgan mahsulot omborxonada sifatlil, uzoq vaqt chirimay, so'limay turadi. Bizga asosan G'ovazon, Xadikent, Iskovot qishloqlaridan mahsulot keladi, omborlarimizda "Konstansa", "Arizona" singari navlar saqlanmoqda. Chust, Norin tumanlari, Andijon viloyatining Balıqchi tumanidan xaridorlar kelib, urug'lik kartoshka olib ketaypti. Biz xizmat ko'rsatayotgan fermerlarimiz ham, boshqa tumanlardan kelayotgan xaridorlar ham xursand.

Bahorning muattar nafasi yangiqo'rg'onlik fermer va dehqonlarning dalasida ham ufuqir qoldi. Kartoshka yetishtiruvchi dehqonlar qish bo'yi ehtiyoq qilib saqlagan urug'ligini saralash, ekish uchun yer hozirlash tadorigini ko'rmoqda. Nasib bo'lsa, bu yil ham kartoshkaning eng sarasi va bozorgiri Yangiqo'rg'on yilida yetishtiriladi.

Dilbar ASQAROVA, Ravshanbek MIRZAOILOV, jurnalistlar



www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Muhokama markazida

Bugun mamlakatimiz sog'liqni saqlash tizimi tub burilish pallasiga kirdi. Sohadagi izchil va maqsadli islohotlar eng chekka hududlardagi tibbiyot maskanlarining qiyofasini ham tubdan o'zgartirdi. Ayniqsa, onalik va bolalikni muhofaza qilish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash borasidagi davlat dasturlari ijobiy natijalarini bera boshladi. Albatta, bu yutuqlar xalqimizning sog'lom kelajagi uchun qo'yilgan mustahkam poyvordir. Xalqaro tajribalar asosida tizimni takomillashtirish va mamlakatimiz aholisi malakali tibbiy xizmatlardan bahramand bo'lishi uchun zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish eng dolzarb vazifalarimizdan.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

XALQIMIZNING PORLOQ ISTIQBOLI

FARZANDLARIMIZ SALOMATLIGIGA BOG'LIQ



Sevara UBAYDULLAYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Bolalarga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar to'g'risida fikr yuritganda, birlamchi tahlini, eng avvalo, demografik ko'rsatkichlardan boshlash maqsadga muvofiq. Mamlakatimizda tug'ilish ko'rsatkichlari barqaror yuqori darajada saqlanib kelmoqda. Xususan, 2024-yilda 926 ming 400, 2025-yilda esa 879 ming 599 bola dunyoga kelgan. Yurtimiz aholisining 32 foizdan ortig'ini 18 yoshgacha bolalar, 14 dan 30 yoshgacha bo'lganlar esa qariyb 26 foizni tashkil qiladi.

Shu o'rinda 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar orasida eng ko'p uchraydigan kasalliklarga ham bir qur to'xtalishimiz zarur. Jumladan, qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari (kamqonlik) maktab yoshidagi bolalarning qariyb 28,4 foizida bo'lib, ushbu ko'rsatkich bolalar o'rnatidagi kasallanish tuzilmasida eng yuqorisi. Shuningdek, nafas olish a'zolari bilan bog'liq, ovqat hazm qilish va endokrin tizimi kasalliklari ko'p uchraydi.

Mutaxassislar ko'ra, har yilgi tug'ilishlar soni qariyb bir millonga yetayotgan bir vaqtda bolalarga xizmat ko'rsatuvchi taxminan 3 ming shifokor yetishmaydi. Bolalarga malakali tibbiy xizmat ko'rsatishda tizimga tushayotgan yuklama yuqoriligi xizmatlar sifatli va samarali bo'lishiga tabiiy ravishda ta'sir qilmoqda. Bunday demografik sharoitda bolalar tibbiyotiga alohida yondashuv va e'tibor talab etilishi tabiiy.

Yurtimizda tibbiyot kadrlarini tayyorlash uchun maxsus tizim yaratilgan. Birlamchi tibbiy-saniitariya yordami muassasalarining 6-yillik bakalavriat bosqichida ta'lim olgan "Pediatriya ishi" yo'nalishi bitiruvchilari, ya'ni bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatadigan kadrlar umumiy amaliyot pediatri mutaxassisi sifatida faoliyat yuritishi mumkin. Diplomidan keyingi ta'limda esa klinik ordinatura va magistratura mutaxassisliklari orqali ixtisoslashgan tor soha mutaxassislari, ya'ni bolalar jarrohlari, kardiolog va kardiolarrohlari, nevrologlari, psixiatri, stomatologlari va yuqumli kasalliklar shifokorlari tayyorlanadi.

Professional mutaxassis bo'lish tibbiy kadrlarning klinik amaliyotini mustaqil bazalarida — ustozlari nazoratida mustaqil amaliyot o'tashi bilan bog'liq. Buning uchun tibbiyot oliy ta'lim muassasalari klinik bazalari mavjud bo'lishi va talabalar, amaliyotchilar klinik ustozlari bilan doimiy birga bo'lib, kasalliklarni tashxislash va davolash jarayonlarini amaliy mustahkamlashi muhim. Hisob-kitoblarga ko'ra, tibbiy universitetlarda 26 mingga yaqin talaba tahsil olayotgan bo'lsa, talabalar amaliy shug'ullana olishi mumkin bo'lgan stasionarlarda taxminan ikki mingga ko'ya mavjud. Xalqaro standartlarda bu ko'rsatkich, ya'ni talabalar amaliy mashg'ulot o'tashi uchun biriktirilgan koiyalar soni qancha ko'p bo'lsa, shuncha ijobiy baholanadi.

Shu bilan birga, kadrlar ta'minoti masalasi ham har qaysi davrda mutasill takomillashtirib borish talab etiladigan yo'nalishlardan biri bo'lib kelgan. 2025-yil holatiga ko'ra, respublikamizda jami 108 mingga yaqin shifokor faoliyat yuritadi. Ya'ni har 10 ming aholiga o'rtacha 28,6 shifokor to'g'ri keladi. Pediatrlar esa tizimdagi eng yirik guruh

bo'lib, soni taxminan 18-19 ming nafarni tashkil etadi. Bir qarashda bu yetarlikdek ko'rinib-da, aholi tarkibida 11 milliondan ortiq bola mavjudligini hisobga olsak, sohada ixtisoslashgan kadrlarga ehtiyoj yil sayin oshib borayotganini kuzatamiz. Xalqaro tajriba ko'rsatadiki, MDHning ayrim davlatlarida amaldagi tizim bugungi mavjud holatimizga yaqin. Yevropa mamlakatlarida esa taklif etilayotgan yangi tizimga uyg'un modellar mavjud. Ular yaxshi infratuzilma, yetarli malakali kadrlar hamda ta'lim jarayonini metodik jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali o'z imkoniyatlari va aholi ehtiyojlaridan kelib chiqib, sifatli va samarali tizimlarni shakllantirgan.

Mamlakatimizda ham ayni tendensiyalarga asoslangan holda tizimni yanada muvofiqlashtirish hamda samarali, xalqchil ko'rinishga kelirish uchun qator sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, keyingi kunlarda "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror loyihasi jamoatchilik muhokamasiga taqdim etildi. Ushbu hujjat mamlakatimiz tibbiy ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va birinchi tibbiy bo'g'inni mustahkamlashga qaratilgan.

Biroq ushbu qaror loyihasida jamoatchilik va mutaxassislar orasida bahsarlarga sabab bo'layotgan masalalardan biri oliy ta'lim muassasalaridagi "Pediatriya" ta'lim yo'nalishini alohida ixtisoslashtirish maqsadga muvofiq bo'lganligi va uni "Umumiy tibbiyot" tizimiga birlashtirish rejasidir. Mazkur masala nafaqat ta'lim siyosati, balki millat salomatligi va demografik barqarorlik nuqtayi nazaridan ham o'ta muhim. Qaror loyihasida tibbiy ta'limni "5+1" formatiga o'tkazish nazarda

tutilgan. Ushbu model 5 yillik umumiy tibbiy ta'lim va 1 yillik amaliyotni (stajirovka) o'z ichiga olib, asosiy maqsad sifatida oliyaviy shifokorlar tayyorlashga qaratilgan.

Tizimda "Davolash ishi" va "Pediatriya" ta'lim yo'nalishlari birlashtirilib, "Umumiy tibbiyot" ixtisosligi shakllantirilishi mumkin. Natijada talabalar 1-kursdan bolalar tibbiyotiga ixtisoslashgan holda emas, balki barcha yosh toifalari uchun umumiy tayyorgarlik ko'radi. Bir qarashda bu universallashuv ijobiy ko'rinib-da, mutaxassislar fikricha, mazkur yondashuv jiddiy xavflarni keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas. Xususan, bolalar tibbiyotiga ajratilgan soatlar qisqaradi, neonatologiya, bolalar fiziologiyasi, bolalar kasalliklari propedevikasi va bolalar farmakologiyasi kabi muhim yo'nalishlarda bilim chuqurligi pasayadi, erta tashxis qo'yish imkoniyatlari cheklanadi. Bu esa kasalliklar og'irlashishi va stasionarlarga yuklama ortishiga olib kelishi mumkin.

Pediatriya alohida klinik maktab hisoblanadi. Shu sababli bolalar kasalliklarini erta bosqichda aniqlashda pediatrlarning o'rni beqiyos. Ilgari olingan tajribalar ham buning tasdig'idir. Masalan, 1990 va 2000-yillar boshida qishloq vrachlik punktlari va umumiy amaliyot shifokorlari tizimi joriy etilgan, ammo bu jarayon bolalar kasalliklarini kech tashxislash, murakkab holatlar soni ortishi va stasionarlarga ortiqcha yuklama kabi muammolarni keltirib chiqargan.

Xuddi shunday holatlar boshqa davlatlarda ham kuzatilgan. Masalan, Qozog'istonda 2007-yilda pediatriya fakultetlari tugatilgan va umumiy amaliyot shifokorlari tayyorlash tizimiga o'tilgan. Ammo 10-yildan so'ng —



2017-yilda pediatriya fakultetlari qayta tiklandi. Ushbu tajriba bolalar kasalliklarini aniqlash sifati pasayishi, ota-onalar noroziligi, bolalar shifoxonalarida kadrlar tanqisligi va bolalar o'limi ko'rsatkichlari ortishi kabi sabablarga asoslangan. Shu shundan dalolat beradiki, pediatriyani umumiy tibbiyot bilan to'liq almashtirish har doim ham samara bermaydi. Ayni paytda sohadagi muammolar fuqarolar murojaatlarida ham o'z aksini topmoqda. Xususan, dyushen mushak distrofiyasi bilan kasallangan bolalarning ota-onalari tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga bir necha bor murojaat qilingan. Ushbu murojaatlar tor ixtisoslashtirish shifokorlari yetishmasligi, dori-darmon bilan ta'minlashda uzilishlar, reabilitatsiya va palliativ yordam masalalarini o'z ichiga oladi.

Yangi oliyviy shifokorlik ta'lim yo'nalishini joriy etish zarur. Biroq joylarda ushbu yo'nalish uchun to'liq shart-sharoit va infratuzilma

emlash va profilaktika nazorati kuchayadi hamda oliyaviy shifokorlar uchun metodik yordam ta'minlanadi.

Tibbiy ta'limni isloh qilish, shubhasiz, zarur jarayon. Biroq har qanday tibbiy islohotda asosiy mezon bemor xavfsizligi, ayniqsa, bolalar salomatligi bo'lishi lozim. Demografiya, bolalar ulushining kattaligi va pediatrlarga o'sib borayotgan yuqori ehtiyoj sharoitida pediatriya ta'lim yo'nalishini to'liq bekor qilish yoki uni umumiy tibbiyotga keskin qo'shib yuborish jiddiy xavflarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun qaror loyihasini muhokama qilish jarayonida pediatriya ta'lim tizimini saqlab qolish, oliyaviy tibbiyot bilan uyg'unlashgan aralash modelni joriy etish va islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratishtirish maqsadga muvofiq. Zotan, bolalar salomatligi nafaqat tibbiyot sohasi, balki millat kelajagi masalasiidir.

Har yili mart oyida insonparvarlik, mehr-oqibat va ijtimoiy adolat g'oyalari o'zida mujassam etgan muhim sana — Xalqaro ijtimoiy ish kuni keng nishonlanadi. Ushbu kasb bayrami jamiyatning eng ehtiyojmand qatamlariga yordam berish, inson qadri va huquqlarini himoyalash yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan minglab ijtimoiy xodimlarning xizmatlarini e'tirof etishga qaratilgan.



Farid NAZAROV, Ijtimoiy himoya milliy agentligi yuridik bo'limi boshlig'i

Xalqaro miqyosda mazkur kun ijtimoiy ishing jamiyat hayotidagi o'rini keng targ'ib etishga xizmat qiladigan muhim maydon sifatida ham qaraladi. Masalan, har yili bu sana muayyan mavzular ostida o'tkazilib, unda ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish, aholining ijtimoiy zaif qatamlarini qo'llab-quvvatlash, inson huquqlarini himoya qilish va jamiyatda ijtimoiy adolati ta'minlash kabi dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratiladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ham ijtimoiy himoya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamonaviy va inson manfaatlariga xizmat qiladigan tizimga aylantirish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirildi. Bu islohotlar markazida esa ijtimoiy ish institutini shakllantirish va uni kasbiy darajada rivojlantirish masalasi turadi. Ilgari ijtimoiy yordam asosan turli idoralar orqali tarqoq holda ko'rsatilgan bo'lsa, bugungi kunda manzilli ijtimoiy xizmatlar tizimi shakllandi. Eng muhimi, ijtimoiy xizmatlar odamlar yashaydigan joyga — mahallaga yaqinlashtirildi.

Kun mavzusi

Mahallada faoliyat yuritayotgan ijtimoiy xodimlar oilalarning ehtiyojlarini aniqlash, muammolarini o'rganish, ularni davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar bilan bog'lashda muhim o'rin tutadi. Bu borada mahallalarda ijtimoiy xodim instituti shakllantirilib, u aholi bilan bevosita ishlaydigan, oilalarning holatini o'rganadigan va zarur xizmatlarni tashkil etuvchi bo'g'inga aylandi.

Shuningdek, mazkur sohada raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xizmatlarning shaffofligi va samaradorligi yanada oshirilmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy xizmatlarning katta qismi axborot tizimlari orqali avtomatlashtirilgan tarzda yuritilayotir. Aholining ehtiyojmand qatamlarini aniqlash, ularga xizmatlarni tayinlash va nazorat qilish jarayonlari raqamli platformalar asosida yo'lga qo'yilgan.

Aholi uchun onlayn murojaat qilish imkoniyatlari ham kengaytirildi. Bu esa fuqarolarga davlat organlariga bevosita murojaat qilmasdan turib ham ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkonini berdi. Xususan, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari va ijtimoiy xodimlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmat turlari 29 taga oshirilib, 134 taga yetkazildi. Ayniqsa, o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar, shuningdek, tazyiq va zo'rovonlikka uchragan ayollar uchun ko'rsatiladigan xizmatlar yangi — kompozit shaklda tashkil etildi. Ushbu mexanizmga muvofiq, fuqaro bir marta murojaat qilishi yoki bitta ariza taqdim etishi orqali unga zarur bo'lgan barcha ijtimoiy, huquqiy, psixologik va boshqa xizmatlar majmuaviy tarzda ko'rsatilib ta'minlanmoqda.

Shu bilan birga, ijtimoiy himoya tizimida proaktiv yondashuv keng joriy etildi. Jumladan, 9 turdagi ijtimoiy to'lov proaktiv shaklga o'tkazildi, ya'ni fuqarolarga ularning huquqi mavjud bo'lgan to'lovlar alohida murojaat talab etmasdan, avtomatik tarzda tayinlanish mexanizmi yo'lga qo'yildi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali aholi uchun



30 turdagi ijtimoiy xizmatga onlayn ariza berish imkoniyati yaratildi. Natijada ijtimoiy xizmatlar tizimida inson omilini kamaytirish, qarorlarni adolatli va xolis qabul qilish hamda yordamni haqiqatan muhtoj bo'lganlarga yetkazish tizimi takomillashtirildi.

Mamlakatimizda ijtimoiy ish sohasidagi yana bir muhim yangilik ijtimoiy xodimlar faoliyatini baholashning zamonaviy tizimini joriy etish bo'ldi. Xususan, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish maqsadida ijtimoiy xodimlar uchun KPI — asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim bilan ijtimoiy xodimlarning faoliyati, xizmatlar sifati va aholi bilan ishlash natijalari tizimli ravishda baholannmoqda.

2024-yil holatiga ko'ra, ijtimoiy xizmatlar tizimida jami 9 mingdan ortiq shtat birligi mavjud bo'lib, shundan 4 ming xodim uchun rag'batlantirish ko'rsatkichlari hisoblanib, 3,7 ming nafari rag'batlantirildi. 2025-yil yakuniga kelib esa ijtimoiy xodimlarning 8 ming nafari rag'batlantirilgan. Bu esa ijtimoiy xodimlar faoliyati samaradorligi va baholash tizimi qamrovi izchil oshganini ko'rsatadi.

Yurtimizda ijtimoiy ish mustahkam ilmiy-metodik asoslarga ega bo'lgan mustaqil professional soha sifatida ham izchil rivojlanib bormoqda. Tizimni modernizatsiyalash jarayoni ijtimoiy ishni ilmiy jihatdan asoslash, uning nazariy va metodik bazasini shakllantirish hamda amaliyotga tatbiq etish bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshirilmoqda. Sohada ilmiy tadqiqotlar, metodik qo'llanmalar va o'quv adabiyotlarini yaratish bo'yicha tizimli ishlar qilinadi. Ijtimoiy xodimlarni tayyorlash, malakasini oshirish, kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash hamda amaliyotda yagona yondashuvlarni shakllantirish maqsadida keng qamrovli ilmiy-metodik baza shakllandi.

Sohada muhim o'rin tutadigan superviziya institutini rivojlantirish bo'yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borildi. Superviziya ijtimoiy xodimlarning kasbiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, malakasini muntazam ravishda oshirish, murakkab holatlar bilan ishlashda metodik yordam ko'rsatish hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini ta'minlashga xizmat qiladigan muhim professional mexanizm hisoblanadi.

Mazkur institut ijtimoiy xodimlarning kasbiy barqarorligini ta'minlash, emosional toliqishning oldini olish va ularning samaradorligini oshirishda ham alohida ahamiyatga ega. Bu yo'nalishda tayyorlangan "Ijtimoiy ishda superviziya" mavzidagi ilmiy qo'llanma xalqaro miqyosda e'tirof etildi va unga xalqaro ISBN raqami berildi. Mazkur holat O'zbekistonda ijtimoiy ish sohasida yaratilayotgan ilmiy ishlar nafaqat ilmiy darajada, balki xalqaro akademik maydonda ham tan olinayotganiga yaqqol namoyonidir.

Metodik ta'minotni mustahkamlash maqsadida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. 2025-yilda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan 12 ta metodik qo'llanma va uslubiy tavsiya ishlab chiqildi. Mazkur metodik materiallar Hamjamiyatlarini mustahkamlash va ijtimoiy farovonlikni rivojlantirish markazi bilan hamkorlikda tayyorlanib, amaliyotga ilmiy yondashuvlarni joriy etishda qo'llandi. Metodik qo'llanmalarga universal klassifikatsiya tizimiga muvofiq UDK (universal o'nluk klassifikatsiyasi) raqamlari berilgan ularning ilmiy jihatdan rasmiylashtirilgani, akademik talablar va xalqaro bibliografik standartlarga muvofiq tayyorlanganini ko'rsatadi. Bu metodik materiallar ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ijtimoiy diagnostika o'tkazish, oilalar bilan ishlash, bolalarni himoya qilish, zo'rovonlikdan jabr ko'rgan shaxslarga yordam berish, nigronligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, mahalla darajasida ijtimoiy ishni tashkil etish kabi muhim yo'nalishlarni qamrab olgan.

Har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi ijtimoiy adolat, inson huquqlari va aholi farovonligi bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda ijtimoiy xodimlar nafaqat yordam ko'rsatuvchi mutaxassislar, balki inson hayotiga ijobiy o'zgarish kirituvchi, oilalarni qo'llab-quvvatlovchi va jamiyatda mehr-oqibat muhitini mustahkamlash muhim kasb egalari sifatida e'tirof etilayotgani bejiz emas. Mahallalarda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy xodimlar har bir oilaning holatini o'rganib, ularga zarur psixologik, huquqiy va ijtimoiy xizmatlarni tashkil etish orqali minglab insonlarning hayotida ijobiy o'zgarishlar yaratmoqda. Shu ma'noda, ijtimoiy xodimlar faoliyati jamiyatning barqaror kelajagini shakllantirishga qaratilgan missiya hisoblanadi. Aytmoqchimizki, ijtimoiy xodimlar o'z kasbi bilan faxrlanishga to'la haqli. Zero, ularning mehnati orqali jamiyatda inson qadri yanada yuksalib, mehr-oqibat va ijtimoiy adolat tamoyillari tobora mustahkamlanmoqda.



YANGI O'ZBEKISTON SPORT TARIXINI YOZADIGANLAR

24-mart kuni "Yangi O'zbekiston Olimpiya cho'qqilari" hamda Prezident Olimpiadasi musobaqalarining 2026-yilgi mavsumi rasman boshlandi. Bu yilgi musobaqalarga qo'shimcha ravishda Paralimpiada beshta sport turi qo'shildi.

"Yangi O'zbekiston Olimpiya cho'qqilari" va Prezident Olimpiadasi musobaqalariga start berildi

O'zbekiston milliy terma jamoasi ilk bor jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritgani barcha yurtdoshlarimiz qalbini faxr-iftixorga to'ldirdi.

Albatta, bunda sportchilarimizning mardligi, yuksak mahorati va so'nmas irodasi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu yutuqlar tub zamirida tizimda ko'pchilik nazaridan chetda qoladigan o'zgarishlar — sportdagi ortga qaytmas islohotlar, hayotga tatbiq etilayotgan yangilanish va turli loyihalarning samarasi katta.

Erishilgan yutuqlar o'zimizniki, albatta. Endigi vazifa esa ushbu ko'rsatkichlarni saqlab qolish, yanada yuqori darajaga ko'tarish hisoblanadi. Sport ustalari ta'biri bilan aytganda, g'alaba qozonish qiyin, ammo uni saqlab qolish, yanada yaxshilash karrasiga mashaqqatli.

Shu bois, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'tgan yil 13-fevral kuni olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida 2028-yilgi Los-Anjeles Olimpiadasida kuchli o'ntalikka kirish uchun tayyorgarlikni kuchaytirish bo'yicha yangi loyiha va takliflarni ilgari surdi.

Hududlarda o'tkaziladigan "Yangi O'zbekiston Olimpiya cho'qqilari" musobaqalari tizimini yo'lga qo'yish shulardan biri. Musobaqaning viloyat bosqichi g'oliblari



har yili dekabr oyida Olimpiya shaharchasida o'tkaziladigan Prezident Olimpiadasida ishtirok etishi belgilandi.

2025-yil 8-iyulda Prezidentimizning "2028-yil Los-Anjeles shahrida (AQSH) bo'lib o'tadigan XXXIV yozgi Olimpiya va XVIII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Hujjatda

yoshlarimiz uchun katta bayram, katta mahorat maktabi bo'ladi, mamlakatimizning do'stlik va hamkorlik diyori sifatida xalqaro obro'-e'tiborini yanada oshiradi. Prezident Olimpiadasi tizimi esa, hech shubhasiz, bunday musobaqalarga javohir sportchilarni tanlab olishga, xususan, 2028-yilda Los-Anjelesda o'tadigan Olimpiya o'yinlari uchun har bir hududdan litsenziyalari sonini ko'paytirishga xizmat qiladi", degandi.

Musobaqaning respublika bosqichida saralangan sportchilar sport-talim tashkilotlari hamda yo'nalishlar bo'yicha milliy terma jamoalarga zaxira sifatida tayyorlash uchun yo'naltiriladi. Xususan, 1- va 2-o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar Respublika olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markaziga, 3-o'rinni qo'lga kiritgan sportchilar hududiy Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlariga yuboriladi. Bundan tashqari, zafar quchgan yosh sportchilar uy, avtomobil kabi qimmatbaho sovg'alalar bilan taqdirlanadi.

Respublika miqyosida ommaviy o'tkaziladigan ushbu musobaqalar nafaqat Olimpiadaga tayyorgarlik ko'rish, balki jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash, aholi orasida ommaviy sport turlarini ommalashtirishga ham xizmat qiladi. Jumladan, musobaqada o'tgan yil 100 mingga yaqin o'g'il-qiz ishtirok etgan bo'lsa, bu yil ishtirokchilar bir necha barobar ko'payishi kutilmoqda. Boisi,



2025-yilda musobaqa sportning 10 turi bo'yicha o'tkazilgan bo'lsa, bu yil ularning soni 21 taga yetgan.

Final Olimpiya shaharchasida o'tkazilishi musobaqa nufuzini yanada oshiradi. Zero, bu yerdagi sport inshootlari xalqaro musobaqalar talablariga to'liq javob beradi. Bir so'z bilan aytganda, ushbu musobaqa umidli sportchi yoshlarimiz uchun xalqaro maydonlarda muvaffaqiyatga erishish yo'lida samarali tajriba maydoni bo'lishi shubhasiz.

Sanjar ESHMURODOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Kamolot pillapoyasi

Sportda rekordlar o'zgarishi, eng avvalo, cheklovlar nisbiy ekanini isbotlaydi. Bir vaqtlar imkonsiz deb qaralgan marra keyingi avlod uchun erishsa bo'ladigan maqsadga aylanadi. Masalan, qanchadir masofani muayyan vaqtga bosib o'tish yoki ma'lum bir og'irlikni ko'tarish kabi ko'rsatkichlar dastlab inson tanasi uchun chegaradag ko'ringan. Lekin birgina sportchi bu chegarani buzishi bilan butun dunyo ahlining qarashi o'zgaradi.



Qizg'i, o'zgarish faqat sport bilan cheklanmaydi. U ilm, ma'rif, san'atga ham ko'chadi. Odamlar murakkab vazifalarga boshqacha nigoz bilan qarab boshlaydi. Yuqori natijalarga erishgan sportchi g'olib o'laraq yangi me'vor yaratadi. Boshqalar esa o'sha me'vorni boshlang'ich nuqta sifatida qabul qiladi, umumiy daraja ko'tariladi. Bu jamoaviy ong'dagi siljishdir: bir odamning jasorati minglab odamlarning o'ziga ishonchini oshiradi.

Bunday insonlar stereotiplarni butkul parchalab tashlaydi, o'zidan keyingi avlodni ruhlantiradi. Yosh avlod ham aynan ularning ortidan borishni, mana shunday yuksak natijalarga erishishni istaydi. Bir kun kelib, ro'parama-ro'para turgan yelkasiga barakalla degandek qo'qib qo'yishni orzu qilsa, ne ajab. Endi tasavvur qiling, o'sha o'g'il-qizlar o'z qahramoni bilan har kuni ko'rishib, birga mashg'ulot o'tkazsa, maktabida o'qib, bevosita saboq olsa, qanday

o'zgarish sodir bo'ladi?! Bugun Olimpiya o'yinlari g'olibi, uch karra jahon chempioni, olimpiya rekordchisi va "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni sohibi Akbar Jo'rayev nomi bilan ataluvchi sport maktabida mashg'ulot o'tayotgan o'g'il-qizlar uchun bu tez orada kundalik turmush tarziga aylanib ulgurishi aniq.

Kuni kecha davlatimiz rahbari tashabbusi va ko'rsatmasi asosida O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanidagi Soyliq qishlog'ida barpo etilgan Akbar Jo'rayev og'ir atletika sport maktabi foydalanishga topshirildi. Ushbu bunyodkorlik nafaqat soyliqliklari, balki butun Toshkent viloyati ahliga, xalqaro sport maydonida og'ir atletika sportiga mehr qo'ygan millionlab insonlar qalbiga iftixor bag'ishlagani bor gap.

Poytaxtimizdan qariyb 100 kilometr naridagi mo'jaz qishloqda xalqaro talab-

BO'LAJAK ZAFARLARINING YANA BIR MANZILI

larga javob beradigan betakror zamonaviy sport majmuasi qad rostlashi jahon olimpiya tizimida o'ziga xos yangilik sifatida e'tirof etildi. Xususan, bundan ikki oy muqaddam yurtimizga tashrif buyurgan Xalqaro og'ir atletika federatsiyasi prezidenti Muhammad Jolud ushbu maskanning qurilish jarayoni bilan tanishib, hali hech bir mamlakatda og'ir atletika sport turiga ixtisoslashtgan, professional sportchi nomidagi bunday noyob sport majmuasi bunyod etilmagani, O'zbekistonda bu amaliyot hayotga tatbiq etilayotganida chuqur insonparvarlik g'oyalari mujassamligini ta'kidlagan edi.

Tashrif doirasida Xalqaro og'ir atletika federatsiyasi hamda O'zbekiston og'ir atletika federatsiyasi o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolangan, unga muvofiq, kelgusida Akbar Jo'rayev nomidagi og'ir atletika sport klubida xalqaro seminarlar, o'quv-yig'in mashg'ulotlari hamda tajriba almashishga qaratilgan nufuzli tadbirlarni tashkil etish belgilangan edi. Bu mamlakatimizda og'ir atletika sport turini yanada rivojlantirish, yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlash

va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash yo'lidagi muhim qadamdir.

2025-yili o'zbekistonlik og'ir atletikachi Akbar Jo'rayev Norvegiyaning Forde shahrida og'ir atletika bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionatida uchta oltin medalga munosib ko'rilgan hamda uch karra jahon chempioni bo'lgan edi.

Bir yil oldin 110 kilogrammgacha vazn toifasidagi bellashuvlarida qatnashgan sportchi barcha yo'nalishda oltin medalni qo'lga kiritdi. Xususan, u dast ko'tarish mashqida 196 kilogramm natija bilan jahon rekordini o'rnatdi. Siltab ko'tarishda esa 232 kilogramm natija qayd etib, tengsiz bo'ldi. Har ikki yo'nalishda va 428 kilogramm ko'rsatkich bilan umumiy yo'nalishda birinchi bo'lib, jami 3 ta oltin medalga ega chiqdi. Bu Akbar Jo'rayevning uchinchi marta jahon chempioni bo'lishi edi. Bungacha u 2021-yili Toshkentda va 2023-yili Ar-Riyodda o'tkazilgan musobaqalarda ham g'olib chiqqan.

O'zbek sporti tarixidagi eng sarmahsul atletlardan biri nomidagi og'ir atletika sport maktabining purviqor tog'lar qo'nyida barpo



etilishida o'ziga xos ma'no mujassam. Ushbu maskanning musaffo havosi, so'lim tabiati sportchilarga kuch-quvvat bag'ishladi, sport turizmi rivojiga salmoqli hissa qo'shishi tabiiy. Qisqa muddatda bunyod etilgan ushbu obyekt qurilishiga O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi qariyb 25 milliard so'm yo'naltirdi.

Yurtimiz ko'rkiga ko'rk bo'lib qo'shilgan ushbu maktab xalqaro talablarga mos ravishda bunyod etildi. Zamonaviy sport anjomlari, uskuna va jihozlar bilan ta'minlandi. Uchta mashg'ulot zali, jismoniy chiniqish uchun stadion, majlislar, tibbiyot va uslubchilar, murabbiylar xonalari, suzish havzasi, yotoq binosi kabilarni qamrab olgan bunday majmuangun barpo etilgani og'ir atletikachilar uchun nafaqat shug'ullanish, balki mahorati va nazariy bilimni mustahkamlash imkonini berishi bilan ahamiyatli.

— Qonimizda g'oliblik ruhi, alplik quvvati bor, faqat bularning shakllanishi, yuzaga chiqishi uchun munosib sharoit va tizimli yondashuv kerak edi, — deydi Akbar Jo'rayev. — Mana, shunday bo'ldi ham. Ushbu sport maktabining tashkil etilishi keng ma'nodagi ijtimoiy hodisa sifatida qabul qilindi. Boisi, bugun biz — sportchilarga, shuningdek, bu maskan oldiga qo'yilgan vazifalar yosh avlodni jismonan chiniqtirishdan tortib, ma'naviy-ruhiy kamolot sari yetaklashgacha bo'lgan keng ulfarni qamrab oladi. Davlatimiz tomonidan zamonaviy moddiy-texnik bazani yaratish chora-tadbirlari dunyo bilan hamqadam ekanimizni ifodalaydi. Zotan, xalqaro talab va standartlarga javob beradigan inshoot va jihozlar jahon bilan teng bo'ylasha

olish imkoniyatiga egaligimizni bildiradi. O'zbekistonda ham yosh atletlar xuddi Tokio, Parij yoki Nyu-Yorkdagi sportchilarnikidek sharoitda mashq qilyaptimi, demak, ular o'z oldiga xuddi shunday yuksak marralarni qo'yishga haqli bo'ladi. Bu esa xalqning orzuniyatini amaliy haqiqatga aylantirishning muhim bosqichidir. Shu jihatdan qaraganda, xalqaro musobaqalarda — Olimpiya va Osiyo o'yinlarida, jahon va Osiyo chempionatlarida bayrog'imizni baland ko'tarishga qodir sportchilarni tayyorlash milliy o'zlik, sharqona g'urur ifodasi o'laraq, xalqimizning dunyo oldida o'z so'zini ayta olish qudratini anglatadi. Ushbu sport maktabining kelajakdagi muvaffaqiyatlari bugungi tizimli mehnatning mantiqiy mevasi bo'lib, u yerda shakllanadigan zafarlar ketma-ketligi yaqin yillarda jahon sporti xaritasida yangi sahifalar ochadi. Bunga ishonchimiz komil.

Sport maktablari oldiga qo'yilgan vazifalar bir qarashda soha doirasinigina qamrab olgandek ko'rinsa-da, aslida, ular jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy kelajagini belgilab berishda salmoqli o'rin tutadi. Bu maktab hech qachon taslim bo'lmaslik, ezgu orzu-intilishlar va mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish dargohi sifatida o'z hayotiy missiyasini ado etishi shubhasiz. Chunki unda tarbiyalangan o'g'il-qizlar ertaga nafaqat jahon arenalarida, balki hayotning eng murakkab maydonlarida ham g'alaba qozonishga qodir avlod bo'lib yetishadi.

Azizbek YUSUPOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va mullifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-346.

31346 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchesi muharrir: Jonibek Alijonov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'za yakuni — 01:01